



O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta

Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____

«_____» _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu:“ A. de Sent-Ekzyuperi ijodi va gumanizm masalalari”

Bajardi:

Ilmiy rahbar, i.f.n.

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2012 yil _____

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

R E J A:

Kirish

KIRISH

I BOB. A. de Sent-Ekzyuperi ijodi va gumanizm masalalari

I.1. Bolalik dunyosi ma'naviy poklik mezoni sifatida

I.2. Kichkina shahzoda» va “Oq kema” asarlaridagi
mifologizmlarning badiiy-estetik funksiyasi

II BOB.

II.1. Sent-Ekzyuperi ijodi O'zbekistonda

II.2. Alber Kamyu ijodida inson “men”i ta'sviri

II.3. O'zbek romanchiligida noan'anaviy tasvir ko'rinishlari

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Soʻz sanʼati boʻlmish badiiy adabiyotning tasvir imkoniyatlari, oʻzaro aloqalari, ijtimoiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqida koʻplab tadqiqotlar olib borilib, kitoblar nashr etilganligiga qaramay, ushbu soha boʻyicha qilinayotgan har qanday izlanishlar adabiyotshunoslikning diqqat markazida boʻlgan. Shuning uchun ushbu bitiruv malakaviy ishi adabiyotshunoslar va sohaga qiziquvchi barcha kishilar nazaridan chetda qolmaydi deb umid qilamiz.

Hozirgi ilm-fan yuksak darajada rivojlangan va axborot texnologiyalari tezkor surʼatlarda taraqqiy etayotgan davrda ham badiiy adabiyotning insonlar hayotidagi oʻrni katta boʻlib qolmoqda. Bashariy sayyorasidagi turli urushlar, ekologik falokatlar, terrorizm, gijohvandlik singari global muammolarni bir millat yoki mamlakat miqyosida hal etish mumkin emasligi oydek ravshan boʻlib turibdi. Bunday davrda dunyo xalqlari va mamlakatlaridan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda integratsiyalashuv talab etilmoqda. Sanoat, xususan adabiyot borasida esa adabiy jarayondan boxabardor boʻlib borish, milliy koloritni saqlash barovarida jahon adabiyotidagi turli uslub va anʼanalarni sintezlashtirish, sanʼat asarlarini barcha uchun tushunarli boʻlishini taʼminlash muhim masala hisoblanadi.

Hozirda oʻzbek adabiyoti dunyoning turli burchaklarida oʻqib oʻrganilibgina qolmay, bu sohada ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda jahon adabiyoti

vakillari asarlarini o`rganish, ma'lum bir mualliflar ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga e'tibor va qiziqish bir muncha oshdi.

Turli xil davr, tuzum, mamlakat va sharoitda yashab ijod etgan yozuvchi hamda shoirlar asarlarida umumbashariy muammolar talqinini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada qardosh va xorij adabiyotini o`rganish, ularni o`z adabiyotimiz bilan qiyoslash orqali mushtarak jihatlarini aniqlash - adabiyotlarni bir-biriga yaqinlashtirish asosiy o`rin egallaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o`rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Chunki shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning milliy, jahon adabiyoti rivojida o`rni anglab yetiladi. Yozuvchi ijodining o`ziga xos qirralarini o`rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o`xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish ham muhimdir. Tipologik o`xshashliklarning ko`pchilik mutaxassislar tomonidan hech qanday aloqaga ega bo`lmagan sun'iy vaziyat sifatida qabul qilinishi natijasida komparagivistikaning bu qismi e'tibordan chetda qoldi va ilmiy izlanishlar kam olib borildi, lekin bevosita ta'sir asosidagi o`xshashliklarga qaraganda bir-biriga yaqin bo`lmagan ijtimoiy, tarixiy sharoitlarda, uzoq vaqt oralig`ida paydo bo`lgan o`xshash adabiy hodisalarni ilmiy-estetik tahlil qilishga qiziqish doimo kam bo`lgan. Bunday masalalarni o`rganish va ularga atroflicha ilmiy baho berish hozirgi zamon fanining ham ob'yektiv ehtiyojiga

aylanmoqda. Tadqiqotchilar so`nggi yillarda o`xshashliklarni tipologik birlik asosida o`rganishga katta qiziqish bilan qarayotganliklari quvonarli holdir. Biz turli tarixiy davr, diniy-madaniy qatlam va muhitda yashab ijod etgan ikki yozuvchi - Antuan de Sent-Ekzyuperi va Chingiz Aytmatovlarning o`xshash jihatlari bilan ajralib turuvchi «Kichkina shahzoda» va «Oq kema» asarlarini qiyosiy tahlilga tortar ekanmiz, ularning badiiy-estetik ahamiyati, qo`yilayotgan muammolarning mushtarak, keng qamrovli va doimo dolzarb ekanligini asos qilib oldik. Badiiy asarlar tahlilida asosiy e`tibor janr va qahramon tanlovining asosiy sabablariga, ulardagi badiiy vositalar o`rni va mohiyatiga, har ikki asarning poetik qurilishiga qaratiladi. Shundan kelib chiqib "Kichkina shahzoda" va "Oq kema" asarlari qiyosiy tahlilini janr va qahramon tanlovi, ertak va asotir unsurlaridan foydalanish muammolarini o`rganish asosiga qurdik.

Bitiruv malakaviy ishida har ikkala asarni qiyosiy o`rganish natijasida ularning jahon adabiyotida tutgan o`rni haqida gapirilgan. Bunday qiyosiy tahlil, birinchidan, har ikki asar ichki strukturasi o`xshash va farqli tomonlarini to`liq ochishga imkon yaratsa, ikkinchidan, har ikki adib badiiy mahoratining o`ziga xos tomonlarini aniqlashga, qahramonlar xarakterining umumiy va farqli jihatlari o`rganishga juda qo`l keladi.

Ishning vazifalari.

1. Asarlarning yaratilish davridagi olamshumul muammolarning badiiy yoritilishini tadqiq etish;
2. "Kichkina shahzoda" va "Oq kema" asarlarining janr xususiyatlarini o'rganish;
3. Har ikki asarda bosh qahramon muammosining qanday hal etganligini aniqlash;
4. Asarlarda ma'naviy poklik g'oyasining o'ziga xos talqinlarini ko'rsatib berish;
5. A. de Sent - Ekzyuperi va Ch. Aytmatov asarlarida majoz va asotir unsurlarining badiiy-estetik funksiyasini tadqiq etish;
6. Sent-Ekzyuperi ijodining O'zbekistonga kirib kelishi va tadqiq etilishi masalasini yoritish;
7. «Kichkina shahzoda» asarining M.Umarov va X.Sultonov tomonidan qilingan tarjima variantlarini o'rganish.

Ishning amaliy ahamiyati. Bundan tashqari, bitiruv malakaviy ishi o'zaro adabiy aloqalar, xususan G'arb modernistik adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalariga ham o'rin ajratilgan. Har qanday adabiyot boshqalarning ta'sirisiz, mutloq mustaqil holda rivojlana olmasligini e'tiborga olsak, o'zaro ta'sir muammosi ham naqadar muhim ekanligi ayon bo'ladi. Biroq o'zaro ta'sir, adabiyotning milliy xususiyatlariga putur yetkazadi deb xavfsirash mutloq o'rinsizdir. To'g'ri, ta'sir yo'qdan bor qilmaydi, lekin u milliy adabiyot taraqqiyotini tezlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun ham G'arb adabiyoti namoyandalari, xususan Alber Kamyu ijodining zamonaviy

adabiy jarayonga ko'rsatayotgan ta'sirini tadqiq etish, badiiyatini ta'minlagan omillarni belgilash nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, A.de Sent-Ekzyuperining 1986 yili o'zbek tilida nashr etilgan «Tungi uchish» va «Kichkina shahzoda» asrlariga Xurshid Davron yozgan so'ngso'zni hamda A.Kamyu ijodi xususidagi qisqa sharh, mulohazalarni hisobga olmaganda o'zbek adabiyotshunosligida bu borada maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Shu ma'noda ishimizni Sent-Ekzyuperi va Kamyu ijodi bo'yicha qilingan dastlabki tadqiqot deyish mumkin. Shu bilan birga Sent-Ekzyuperi va Ch.Aytmatov asarlarining qiyosiy tahlili ham adabiyotshunoslikda hali o'rganilmagan ob'yekt bo'lib, tadqiqotimiz bu boradagi dastlabki urinishdir.

Ishdagi asosiy ilmiy yangiliklar:

1. A.de Sent-Ekzyupeti va Ch.Aytmatov asarlaridagi majoz va mifologik unsurlarning badiiy-estetik funksiyasi ilk bor chog'ishtirma uslubda tadqiq etildi;
2. "Kichkina shahzoda" va "Oq kema" asarlarida bosh qahramon tanlovi muammosi, xususan, bolalar ruhiyatida ma'naviyat asoslarining aks etishi masalasi birinchi marotaba qiyosiy tarzda o'rganildi;
3. Sent-Ekzyuperi ijodining O'zbekistonga kirib kelish tarixi yoritildi;
4. A.Kamyu ijod yo'li o'zbek tilida ilk bor tadqiq etildi;
5. G'arb modernistik adabiyoti, xususan A.Kamyu ijodi ta'siri zamonaviy o'zbek adabiyotidagi bir qancha nasriy asarlar misolida o'rganildi.

I BOB. A. DE SENT-EKZYUPERI IJODI VA GUMANIZM MASALALARI

Fransuz diyor tarixdan ko'plab olimu yozuvchilarni yetkazib bergan yurt sifatida ma'lum. O'zida ham yozuvchilik, ham faylasuf-nasihatgo'ylik iqtidorini mujassam etgan buyuk insonlarning ko'pi mana shu o'lkada voyaga yetganlar. XVIII asrda yashab ijod etgan B.Paskal, F.Laroshfuko, XVIII asrdan F.Volter, D.Didro, J.J.Russolar ana shunday iqtidor sohiblari sirasiga kiradi.

XX asrga kelib, Fransiyada ana shunday moralistlarning navbatdagi turkumi yetishib chiqdi, desak, xato bo'lmaydi. Bu davrda yashab ijod etgan Malro, A. de Sent-Ekzyuperi, J.P.Sartr, A.Kamyu singari ijodkorlar mumtoz an'analarni davom ettirish barobarida adabiyotda o'ziga xos o'rin va ovozga ega bo'ldilar. Ularning biri - biz ijodi holda batafsil to'xtamoqchi bo'lganimiz - Antuan de Sent-Ekzyuperi (1900-1944) nafaqat fransuz adabiyotida, balki XX asr jahon adabiy jarayonida alohida o'rin tutuvchi yozuvchilardan sanaladi.

Sent-Ekzyuperi ijodi haqida fikr yuritishdan avval yozuvchining adabiyotdagi o'ziga xos o'rni nima bilan belgilanishi haqidagi masalaga to'xtash lozim bo'ladi.

G'arb va rus adabiyotshunoslari yozuvchining o'ziga xosligini ijodkor professional uchuvchi bo'lganligi va birinchilardan bo'lib o'z kasbini asarlarining asosiy manbai, mavzusiga aylantirganligi bilan belgilaydilar. Yozuvchi ijodi haqidagi ko'plab tadqiqotlarda u gumanizm kuychisi, pastifizm g'oyalarining targ'ibotchisi sifatida

talqin etilgan. Shu o`rinda Sent-Ekzyuperining hayot va ijod yo`li, asarlarining tahlili bilan MDHda, asosan, rus adabiyotshunoslari shug`ullanishganligini ta`kidlash lozim. Bundan tashqari, Sent-Ekzyuperi ko`plab mamlakatlarda, xususan O`zbekistonda «Kichkina shahzoda» naql-ertakning muallifi sifatidagina ma`lum. Hayotdan ko`z yumganiga 60 yil bo`lganiga qaramay, uning ijodiy merosi hamon adabiyotshunoslarning e`tiborida bo`lmoqda. Yozuvchi asarlari hozir ham ko`plab nusxalarda chop etilayotgani, ular o`zbek tiliga tarjima qilinganligi, va nihoyat, ijodini o`rganish o`zbek o`rta umumta`lim maktablari dasturiga kiritilganligi Sent-Ekzyuperi ijodiy merosiga XXI asr kishisi nuqtai nazaridan baho berishni taqozo etmoqda.

Sent-Ekzyuperi asarlarini uning asosiy kasbi - uchuvchilikdan ayri holda qabul qilish mumkin emas, albatta. Bundan tashqari, Sent-Ekzyuperi noto`g`ri hech qachon o`zini professional yozuvchi deb hisoblamagan. Uchuvchilik yozuvchi hayotining asosiy mazmunini tashkil etganligi, shubhasiz. Shuning uchun ham uning asarlarini o`rganish va qabul qilishda aynan uchuvchilik kasbi, ushbu mashg`ulotning o`ziga xosliklari jihatidan yondoshish lozim deb hisoblaymiz.

Antuan de Sent-Ekzyuperi (Antoine de Saint-Exupery) 1900 yilning 29 iyunida Lion shahrida ancha qashshoqlashib qolgan zodagonlar oilasida tug`ildi. Sent-Ekzyuperi o`n ikki yoshga to`lganda birinchi bor havoga ko`tarildi: o`sha paytlardagi mashhur fransuz yozuvchisi Vedren uni samolyotida birga olib uchadi. Parvoz ishqisi ana

shu lahzadan boshlab yosh Antuanning hayotidagi asosiy, bir umrlik maqsadi bo`lib qolgan bo`lsa, ajab emas.

1921 yili u ko`ngilli ravishda harbiy xizmatga chaqirildi. Harbiy qiruvchilar aviapolkida zo`r ishtiyoq bilan uchuvchilik sirlarini o`rgandi va fransuz armiyasining leytenanti unvoniga ega bo`ldi. 1927 yildan boshlab Fransiya janubini Afrika bilan bog`lovchi pochta yo`nalishida uchuvchi bo`lib ishlaydi. Ikkinchi jahon urushidan boshlab harbiy razvedka qismlarida xizmat qildi va Fransiya mag`lubiyatidan so`ng AQShga ketishga majbur bo`ldi. Sent-Ekzyuperi tomonidan u yerdan bildirilgan qat'iy so`rovlar natijasida harakatdagi armiya safiga qaytarilgan. 1944 yilning 31 iyun kuni Fransiya janubida razvedka ishlarini olib borish uchun AQSh havo kuchlariga qarashli havo kemasida parvoz qilgan Sent-Ekzyuperi samolyoti urib tushirildi.

Sent-Ekzyuperining ijodiy merosi quyidagicha: 1926 yilda nashr etilgan «Uchuvchi» novellasi, 1928 yili «Janubiy pochtachi», 1931 yili «Tungi uchish», 1939 yili «Bashar sayyorasi» qissalari, Ispaniyadagi urush haqidagi ocherklar, 1942 yilda chop etilgan «Harbiy uchuvchi» va «Kichkina shahzoda» asarlari hamda 1936 yildan vafotigacha ish olib borilgan, lekin yakunlanmagan «Istehkom» asari.

Aviatsiya Sent-Ekzyuperi uchun eng avvalo dunyoni o`rganish, uni kashf etish, insondagi nodir fazilatlarni tarbiyalovchi, insonlar va mamlakatlar o`rtasidagi hamkorlikka, birodarlikka yo`l ochuvchi vosita edi. «Menimcha, muhimi bizning kasbimizning buyuk quvonchlari faqat bizning kasbimizga xos bo`lgan iztiroblari emas; muximi, mana shu quvonchu iztiroblari tufayli shakllangan va bizni yuksaltirib turuvchi fazilat - hayotga bo`lgan munosabatimiz», deb yozgan edi Sent-

Ekzyuperi. Bundan tashqari, samoda parvoz qiluvchi, osmondan turib yerni kuzatuvchi inson boshqalqrgq nisbatan o`zgacha dunyoqarashga ega bo`ladi. Bir qarashda sezilavermaydigan, lekin samolyot kabinasidan nihoyatda nozik va himoyasiz bo`lib ko`rinadigan ona zaminimizda insonlar naqadar yolg`iz, bir-birini tushunishga ojiz ekanliklari uchuvchi Sent-Ekzyuperini tashvishga soladi. Hayotning qisqaligi, insonlar o`rtasidagi mehr-muhabbat, bir-birlarini anglab yashashga bo`lgan intilishlari tiriklik mazmunini tashkil etishi uni deyarli har bir asarining bosh g`oyasi hisoblanadi. Har kuni samolyotda parvoz qiluvchi, har daqiqada o`lim bilan yuzma-yuz kelishi mumkin bo`lgan Sent- Ekzyuperi uchun insonlarni birlashtirish g`oyasi naqadar muhim ekanligini tushunish qiyin emas. Albatta, yozuvchi asarlarida uchuvchilik kasbi sir sinoatlari va insoniyat uchun yangi soha - aviatsiyaning o`ziga xosliklariga bir muncha o`rin ajratilgan. Lekin bular uning uchun asosiy maqsad emas edi. Parvoz Sent-Ekzyuperiga hayot haqiqatini topishga, dunyoga ziyrak nigoh bilan nazar tashlashga imkon beradi. Uchuvchi yuqoridan turib bashar sayyorasini o`zicha kashf qiladi. U o`zini nafaqat fransuz yoki yevropalik, balki bashar sayyorasining a`zosi, uning bir bo`lagi deb his qilganligini ta`kidlash kerak. Sent-Ekzyuperi asarlarida aviatsiya birinchi o`rinda, insoniy qardoshlikka eltuvchi vosita hisoblanadi. XX asr boshlarida aviatsiya hali mukammallashmagan, halokatlar va turli ko`ngilsizliklar bo`lishi deyarli odatiy hol bo`lib, Sent-Ekzyuperining o`zi ham bir necha bor halokatga uchragan edi. U uchuvchilarning kichik jamoasini qardoshlik va insonlarga muhabbatga asoslangan jamiyatning yacheykasi yoki modeli deb bilardi.

Uchuvchilik bo`ron, to`fon, sovuq, qorong`ilik singari tabiat kuchlari bilan doimiy kurashishni talab etadi. Ana shu doimiy kurashda tom ma`nodagi haqiqiy inson tug`iladi va shakllanib boradi. Ushbu jarayon Sent-Ekzyuperini doimo o`ziga tortib kelgan. U bir necha bor parvoz qilish mohiyatni anglashni bildiradi (samolyot oynasidan tashqi olamni xuddi mikroskopda ko`rayotganday o`rganasiz) degan bo`lsada, bizning nazarimizda, yozuvchi uchun samolyot kabinasida, samolyot shturvalidagi insonda ro`y beradigan jarayonlar muhim hisoblangan. Chunki o`sha samolyot kabinasida haqiqiy insoniylik paydo bo`lishi bilan birga, dunyoga nisbatan munosabat va qarash ham shakllanadi.

Sent-Ekzyuperi ijodi tadqiqotchilaridan bo`lgan D.Ane yozuvchi o`z kasbida bunday deganligi haqida guvohlik beradi: «Kitoblar yozishimga samolyot sababchi deya olmayman. Agar shaxtyor bo`lganimda ham haqiqatni (enseignement) yer ostida qidirgan bo`lardim». Yozuvchi uchuvchilikni ko`pincha dehqonlarga, bog`bonlarga va duradgorlarga qiyoslaydi. Masalan, Giyome ish boshlashdan avval duradgor singari, detalni har tomonlama ko`zdan kechirib, o`lchab, taqqoslab va o`rganib chiqadi. Aviatorlar mehnatini dehqonlarga mengzash holatlariga esa Sent-Ekzyuperi asarlarida ko`p duch kelamiz. Uchuvchi o`zini «aerodromlar dehqoni» deb ataydi. Ushbu mehnatda kishilarni birlashtirib turuvchi bir qarashda ko`zga tashlanmaydigan muhim jihatlar bor. Uchuvchi samolyotni deb o`z hayotini xavf ostida qoldirmaganidek, dehqon ham omochni deb yer haydamaydi. Inson mehnat qilish barobarida insoniy tashvishlarni ham anglab yetadi.

Biz yuqorida Sent-Ekzyuperi birinchi bo`lib adabiyotda uchuvchilar mavzusiga qo`l urganligini ilk bor uchuvchilar hayoti, fikrlash tarzi, parvoz romantikasi haqida hikoya qilganligini ta`kidlagan edik. Biroq ma`lum bir soha va kasblarning o`ziga xosliklari haqidagi asarlar ham aslida Fransiyada XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo`la boshladi. Fransuz yozuvchisi Per Amp romanida shampain vinosi ishlab chiqarishdan iste`mol qilinishigacha bo`lgan jarayon batafsil yoritilgan. Yozuvchining boshqa romanlari yigiruv va to`quv sanoati, baliqchilik tarmog`ining o`ziga xosliklariga bag`ishlangan. Amp romanlarida insonlar tasviri deyarli ko`zga tashlanmaydi. Muallif uchun ishlab chiqarish, mahsulot tayyorlanish jarayonini tasvirlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblangan.

Sent-Ekzyuperi ham P.Amp an`anasini davom ettirish barobarida kasbiy adabiyotda o`ziga xos original tasvir usulini tanladi. Chunki biron-bir soha yoki kasb haqida qanchalik iste`dod bilan tasvirlashdan qat`iy nazar, u adabiyot uchun yuksak badiiy qiymat kasb etmaydi. Yozuvchi, avvalo tasvirlanayotgan kasbning o`ziga xos romantikasini, ushbu kasb sohibining atrof-olam voqealari, umuman hayotga nisbatan paydo bo`lgan yangicha qarashlari, orzu-o`ylari hamda asotsiatsiyalarini tasvirlay olishi lozim bo`ladi. Ana shundagina, ijodkor tasvirga olingan kasb yoki hunarning tor doirasidan chiqib, tom ma`nodagi adabiyotga daxldor asar yaratishi mumkin. Sen-Ekzyuperi ana shunday adiblardan sanaladi. U uchuvchi sifatida biz barchamiz uncha katta bo`lmagan juda nozik sayyoraning a`zolari ekanligimizni va hayotimiz insonga muhabbat asosiga qurilganligini anglab yetish asosiy masala hisoblanishini deyarli har bir asarda ta`kidlaydi. Insonni yuksak

ma'naviy ruh manbai sifatida qadrlash, uni qalb ko'zini ochish tufayligina hayot dialektikasini anglab yetish mumkin bo'ladi.

Xullas, Sent-Ekzyuperi jahon adabiyotida birinchi bo'lib aviatsiya mavzusini adabiyotga olib kirdi va XX asrdagi yangi soha kishilarining faoliyati haqida ilk bor hikoya qildi. Shu bilan birga u o'z kasbini stivilizatsiya, jamiyat kelajagi va insonlar taqdiri haqidagi falsafiy mushohadalar manbaiga aylantira oldi. Natijada, jahon adabiyotida birinchilardan bo'lib uchuvchilikni ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida talqin etdi.

Endi adib asarlaridagi o'ziga xos uslublar, original jihatlar, adabiy janrlar poetikasini boyitishga bo'lgan urinishlar haqida batafsil, to'xtash lozim bo'ladi. Avvalo, yozuvchi asarlarida uchuvchi va parvoz mavzusi avtobiografik elementlar bilan uyg'unlashgan holda ijodkorning individualligini namoyon etganligiga e'tiborni qaratish kerak. Uning ko'rgan va kechirganlariga parvoz paytida boshqa minglab uchuvchilar ham to'qnash kelganlar. Sent-Ekzyuperi o'z kechinmalarini o'ziga xos tarzda, barcha uchun qiziqarli va tushunarli shaklda hikoya qilishga harakat qiladi. Shuning uchun ham an'anaviy adabiyotdagi syujet yozuvchi uchun ikkinchi darajali unsur hisoblangan. Uning dastlabki asarlarida syujet yo'li ko'zga tashlansa-da, keyingi asarlarida voqealar tizimi u qadar muhim bo'lmagan shartga aylanib boradi. Bizningcha, Sent-Ekzyuperi asarlari uchun voqea va hodisalar haqida hikoya qilish emas, balki ana shu voqelar tufayli paydo bo'lgan mulohazalarni bayon etish muhim hisoblangan.

Sent-Ekzyuperining dastlabki yirik asari «Janubiy pochtachi» 1928 yili nashr etildi. Ushbu asarda dastlabki asari-«Uchuvchi» hikoyasidagi mavzu yangicha ruhda davom ettirilibgina qolmay, muammoning qo`yilishida ham mushtaraklikka amal qilindi. Hikoyada Jak Bernini katta, shovqin-suronli shaharning zerikarli muhitidan sahroga qilgan tarkidunyosi muammoning yechimi deb baholangan.

«Janubiy pochtachi» intri asosiga qurilganligi bilan muallifning boshqa asarlaridan farq qiladi. Lekin intriga ramziy tarzda asarning asosiy g`oyasini ifodalashga yo`naltirilgan. Jeneveva farzandi o`limidan so`ng sobiq sevgilisi Jak Berni bilan yashay boshlaydi. Ular bir-birlarini sevishlariga qaramay, har biri o`z dunyosi, o`z tushunchasi doirasini yorib chiqolmaydilar. Ayriliq ularni qurbon qiladi. Chunki tez orada Berni ikki yo`l boshida ekanligini, ya`ni Jenevevani sevish, u bilan birga bo`lish yoki undan fidoyilikni talab etuvchi uchuvchilikni tanlash lozimligini anglab yetadi. U aviatsiya halokati tufayli sahroda halok bo`ladi. Yozuvchi asarida uchuvchi halokati sabablarini ochmaydi - bu tarkidunyo edimi yoki baxtsiz hodisa - noma`lumligicha qoladi. Asarda hayotning ikki xil shakli bir-biri bilan to`qnash kelganligiga guvoh bo`lamiz. Ularning hech biri muallif tomonidan inkor etilmaydi.

«Janubiy pochtachi» dagi ko`p ohanglar Sent-Ekzyuperining «Tungi uchish» va «Kichkina shahzoda» asarlarida mazmunan davom ettiriladi. Agar «Janubiy pochtachi» de Bernis haqiqatni qidirganini o`zi to`la anglab yetmagan bo`lsa, «Tungi uchish»da uchuvchi tanlovining mohiyati to`liq ochiladi.

«Janubiy pochtachi»da muallif juda ko`p mavzu va motivlarni qamrab olmoqchi bo`lgan. Bu yosh ijodkorlarning ko`pchiligiga xos xususiyat, albatta. Asarda Jakning muhabbati, do`stlikning qudrati, inson mardligi, tabiat go`zalligi va boshqa mavzular parallel holda rivojlanib boradi. Lekin ushbu mavzularning bir xilda ochib berilishiga erishish murakkab vazifa edi. V.Grigorevning fikricha, mavzular talqinidagi notekislik ba`zi obrazlar to`la shakllanmagandek, ba`zilariga esa haddan ziyod e`tibor berilganday tasavvur tug`diradi va bunday hol an`anaviy poetikada asar syujet qurilishi bo`shligining alomatlaridan sanaladi. V.Grigorev qarashlarini inkor etmagan holda, asarning kup o`rinlari uchuvchining mashaqqatli mehnati tasviriga bag`ishlangani, samolyotlar harakati, ob-havo, qutqaruv ishlari haqidagi bir qarashda quruq faktlardan iborat telegramma matnlari asar kompozitsiyasiga singdirilib yuborilganligini romanning o`ziga xos yutug`i deb hisoblaymiz.

«Janubiy pochtachi» adabiy tanqidchilikda birmuncha xotirjamlik bilan kutib olindi. Lekin bir qator fransuz adiblari, xususan Lui Aragon, Pol Elyuarlar asardagi novatorona xususiyatlarga, undagi dinamik uslubga va musiqiy ohangga yuqori baho berdilar.

Sent-Ekzyuperining ikkinchi yirik asari «Tungi uchish»da insonning o`zgalar uchun mas`ulligi masalasi kutarilgan. Avvalgi asarlarida har qanday kasb, shu jumladan uchuvchilik kasbi, insonlarga xizmat qilishi bilan go`zal ekanligiga urg`u berilgan edi. Insonlar xizmat qilish, ular uchun qayg`urish birinchi navbatda mas`ullik hissini taqozo etadi. O`z faoliyati uchun boshqalar oldida mas`uliyatni his etish yozuvchi ijodining yangi mavzusiga aylanadi.

Shu o`rinda ba`zi tadqiqotchilarning asar g`oyasi Ande Jid, Andre Malro singari adiblar ta`sirida paydo bo`lgan degan fikrlarini ham butunlay inkor etib bo`lmaydi. Yuqoridagi va boshqa bir qancha ijodkorlar «hayotga, yashashga bo`lgan intilishni yo`qotmaslik uchun inson faqatgina faoliyat ko`rsatishi kerak» degan fikrni ilgari surgan edilar. F.Nistshe, M.Xaydegger falsafiy qarashlari ta`sirida yaratilgan asarlar bilan Sent-Ekzyuperi ham yaxshi tanish bo`lgan. Hayot mazmuni doimo xavf-xatar, o`lim bilan yonma-yon yashash, o`z faoliyati natijasida jismoniy, ma`naviy kuchini toblash va o`z ustunligini namoyish etishda deb biluvchi adabiyotning ta`siridan «Tungi uchish» muallifi ham chetda qolmagan. Shuning uchun ham Sent-Ekzyuperi ijodiga bunday ta`sirning bo`lishini butunlay inkor etgan I.Shukunayeva, N.Naumov singari adabiyotshunoslar fikriga qo`shila olmaymiz. Ekzyuperi ijodida inson faoliyati haqidagi mavzuning paydo bo`lishining o`zi o`sha davr adabiy jarayonining ta`siri deb hisoblash mumkin. Lekin inson va jamiyat munosabatlari hamda yashashning mohiyati haqidagi adabiy «gurung»da Sent-Ekzyuperi qanday yangi so`z ayta olganligi boshqa masala hisoblanadi.

Sent-Ekzyuperi ma`lum bir maqsadga yo`naltirilgan, majburiy yoki kasbiy faoliyatni yoqlab chiqdi. Uning qahramonlari samolyotlarida yerdan ko`tarilar ekanlar, mana shu zamin va undagi insonlar uchun kurash olib boradilar yoki faoliyat ko`rsatadilar. Bu toifa insonlar hayotdan bezish, umidsizlik, yolg`izlik hislarining ta`siriga tushishlari mumkin emas.

Nashr etilgan, 1931 yildayoq «Femina» adabiy mukofoti bilan taqdirlangan «Tungi uchish» romani yozuvchi zamondoshlari uchun xudbinlikni qoralovchi insoniy burchning go`zalligi va ulug`vorligi haqidagi asar edi. Lekin asarni Sent-Ekzyuperi hamkasblari-uchuvchilar

yaxshi qabul qilmadilar. Buning asosiy sabablaridan biri romanning bosh qahramonlaridan biri River obrazi bilan bog`liq. Adibning hamkasblari asardagi ushbu obraz orqali tasvirlangan Dide Dorani yomon ko`rishardi. O`ziga ham, boshqalarga ham qattiqqo`l, talabchan rahbar uchuvchilar nazarida insonga xos bo`lgan har qanday nozik his-tuyg`udan mahrum korchalon edi. Sent-Ekzyuperi uchun esa River «ulug` va donishmand rahbar» bo`lib, faqat ugina uchuvchilar hayotini yuksak mazmun bilan boyita olishi mumkinday tuyulardi.

Aviakompaniya samolyotlari bilan sodir bo`layotgan har bir halokat River uchun «ayblov hukmi» edi. Riverga muhandislardan biri yangi qurilayotgan ko`prik yonida jarohatlanib yotgan kishini ko`rsatib, ushbu ko`prik uning uchun insonning yuzi pachoq bo`lishiga arzimastligini, ushbu yo`l, ushbu ko`prik dehqonlar uchun qurilayotgan bo`lishiga qaramay, ularning hech qaysisi yo`lning qisqa bo`lishi uchun kimdir jarohat olishini istamasligini, shunga qaramay, ko`priklar qurilayotganligini aytadi. Muhandis yana jamiyat manfaati shaxsiy manfaatlar yig`indisi asosiga qurilishini, boshqa hech narsaga asoslanmasligini ta`kidlaydi. Biroz vaqtdan so`ng River unga shunday javob beradi: «Inson hayoti barcha narsadan qadrli bo`lsada, biz doimo undanda qadrliroq yana nimadir borday harakat qilamiz.... Lekin o`sha qadrli narsaning o`zi nima?».

«Tungi uchish» yozilgan davrda uchuvchilik hozirgiday oddiy faoliyat emas, balki doimiy kurashni talab qiladigan kasb edi. Asar qahramonlari uchun har bir parvoz o`ziga xos sinov, o`ziga xos jang hisoblanar edi. Ular uchun hech qanday o`limdan qo`rqmaslikka undovchi River singari jiddiy va qattiqqo`l rahbarning bo`lishi

maqsadga muvofiq edi. Asar va uning qahramonlari haqida mutaxassislar tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlarga qaramay, muallif o'z ijodiy metodidan qaytmasligini e'tirof etadi. Yozuvchi «Tungi uchish» nashridan ancha yil keyin, aniqrog'i, Ikkinchi jahon urushi davrida Riverning tarbiyaviy tamoyillariga sodiq ekanligi haqida yozaadi: «Qo'rquvni yengsang bo'lgani, shunda bu kasb ham (uchuvchilik - A.Q.) barcha mashg'ulotlar kabi bo'lib qoladi. O'n ming metr balandlikda uchishmi yoki somovdan kursi to'qishmi... chunki qo'rquv yengilgan; men buni bir necha bor tungi uchish paytida, dengizda cho'kayotganimda, tashnalikdan qiynalayotganimda sinovdan o'tkazganman. Dora insonlarga mardlikni o'rgatmagan: u ularni qo'rquvni yengishga majbur qilgan».

Sent-Ekzyuperining yana bir asari «Harbiy uchuvchi» o'z shakli bilan bir kunlik voqealar haqidagi reportajni eslatadi. Yozuvchi nemislar qurshovida bo'lgan Arras shahri tomon uchayotgan fransuz razvedkachi samolyotining parvozi haqida hikoya qiladi. «Bashar sayyorasi»da ta'kidlangan insonlar birdamligi g'oyasi bu asarda yana ham kengayadi. Asar Ekzyuperining Ispaniya voqealariga bag'ishlab yozgan gazeta ocherklarini yodga soladi. «Harbiy uchuvchi»da yozuvchi qarashlari, o'y-fikrlari abstrakt xarakterda bayon etilgani uni Fransiyada nemis harbiy stenzurasini chalg'itib bosilib chiqishida muhim rol o'ynagan. Asar o'quvchini asta-sekin chulg'ab oluvchi tashvish va qayg'u ruhi bilan yo'g'rilgan. Shundan bo'lsa kerak, adabiyotshunos M.Vaksmaxer «Harbiy uchuvchi»ni insonlarning qo'lga kiritilmagan hayotining oydin yo'llari va boshi berk ko'chalari haqida falsafa yurgizadi. XVIII asr ma'rifatchilik falsafasi bilan bog'liq

bo'lgan insonparvarlik g'oyalari Ekzyuperi uchun juda ham qadrli bo'lib, bu ideallar toptalmoqda edi. Eng achinarlisi inson unutildi, kamsitildi va taxqirlandi. Shuning uchun yozuvchi insonlarni so'zdan amaliy ishga o'tishga undaydi. Yozuvchining fikricha, buning faqat bitta yo'li bor, u ham bo'lsa - faoliyat ko'rsatish.

1936 yildan umrining oxirigacha Sent-Ekzyuperi bosh asarim deb hisoblagan «Istehkom («Citadel»）」 ustida ishladi, biroq uni yakunlay olmadi. Sent-Ekzyuperi istagi bo'yicha asar o'z hajmi, problematikasi va badiiy saviyasi jihatidan ijodining asosiy mahsuli bo'lishi kerak edi. Lekin yozuvchi asarni tugallash ushalishi qiyin bo'lgan orzuday gap ekanligini his qiladi va ana shu davrda yozgan maktublaridan birida quyidagicha yozadi: «...Bu narsa («Istehkom»-A.Q)ning vafotidan keyin nashr etilsa kerak, chunki uni tugallashga hech ham ko'zim yetmayapti. U yetti yuz sahifadan iborat. Ushbu yetti yuz sahifani oddiy maqola singari tahrir qilib chiqqanimda ham menga o'n yil vaqt kerak bo'ladi...»

Yozuvchi fikrlarini diktofonga yozib borgan va keyinchalik mashinistka ko'chirgan matnga tuzatishlar kiritgan. Shundan bo'lsa kerak «Istehkom» danotiqlik ohanglari ustunlik qiladi. Adib ijodi davomida targ'ib qilgan «inson hayotiga ma'no bahsh etish» «Istehkom»da asosiy g'oya sifatida jaranglaydi. Shu o'rinda Sent-Ekzyuperi dunyoqarashi hamda yozuvchilik uslubining shakllanishida B.Paskal, F.Laroshfuko, Volter asarlarining ta'siri katta bo'lganligini yana bir bor ta'kidlash lozim.

Yozuvchi o'z esdaliklarida XVII asr klassistik nasrining yetuk nomoyandasi Blez Paskal (1623-1662)ning «O'ylar» («Repzeyez») asari uning doimiy hamrohi ekanligi haqida yozgan. Umuman, aforistik tarzda fikrlash, xulosa chiqarish Sent-Ekzyuperining deyarli barcha asarlariga xos xususiyatdir. «Bashar sayyorasi», «Harbiy uchuvchi» «Kichkina shahzoda» asarlarida hikmatli so'zlardan keng foydalanilgan.

Ma'lumki, aforizmlar yoki hikmatlar ko'pincha voqealar tahlili zamirida, tasvir ichida, muallif maqsadining lo'nda ifodasi sifatida qissadan-hissa tarzida tug'iladi.

«Istehkom» esa butunlay hikmatlarga asoslangan bo'lib, undagi saboqlar shunchaki loqaydlik bilan qayd etilmagan, balki ular mohiyati qat'iy hukm ostida, timsollar vositasida ifodalangan. Asarda teran axloqiy, falsafiy mulohazalar shartli qahramon - hayotning achchiqchuchugini tatigan shimoliy afrikalik kabila oqsoqolining o'g'li yoki o'rinbosariga nasihati shaklida bayon etiladi.

Bizning nazarimizda, asarning asosiy g'oyasi har bir inson qalbida o'z istehkomi bo'lib, u yuzlab, minglab mehr-sadoqatga tashna kishilarga makon bo'lishi haqidadir.

«Sizlar kechirimlilik va mehr-shafqatdan saboq berishingiz zarur emas. Chunki bu sifatlarni noto'g'ri talqin etish ziyon yetkazuvchi illatlar oldida tiz cho'kishga olib kelishi mumkin. Lekin faqatgina insonning inson bilan hamkorligi vositasida amalga oshiruvchi hammaning hamma bilan hamkorligini targ'ib eting. Ana shunda jarroh oddiy ishchini davolash uchun ham sahrolar osha oshiqadi. Illo, ularning har bir safari ham butun bir kemanding darg'asidir».

I.1. BOLALIK DUNYOSI MA'NAViy POKLIK MEZONI SIFATIDA

Sent-Ekzyuperi ijodidagi muhim asarlardan biri «Kichkina shaxzoda» falsafiy ertagi 1942 yilda yozuvchi Nyu-Yorkda yashagan paytida yozildi. Ushbu asar janr va kompozitsiya bo'yicha avvalgilardan farq qiladi. Dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan ushbu asar fransuz yozuvchisining eng mashhur asari sifatida tan olingan. Adabiyotshunos R.Grachyovning ta'kidlashicha, «Kichkina shahzoda» inson o'zini poetik jihatdan his qilishining ishonchli tajassumi bo'lib qoldi. U yozuvchining boshqa asarlariga nur taratib turadi va ularni ushbu ertaksiz anglab yetish mumkin emas». Haqiqatdan ham Fransiyadan boshqa ko'p mamlakatlarda Sent-Ekzyuperini «Kichkina shahzoda» orqali tanishadi hamda uning yozuvchilik faoliyatini asosan mana shu asar bilan bog'laydilar. Shuning uchun ushbu asar va uning o'ziga xos poetikasi haqida kengroq to'xtash lozim deb hisoblaymiz. Asar ruhiga singdirib yuborilgan teran falsafa, betakror ramz va majoziylikni chuqurroq tahlil qilish niyatida qahramon tanlovi hamda mifologizmlardan foydalanish masalasiga murojaat qildik. Bunda atoqli qirg'iz adibi Ch.Aytmatovning «Oq kema» qissasini muqoyasa ob'yekti qilib tanladik.

Ijodkor insonning ruhiy dunyosini va uni o'rab turgan tashqi dunyoni badiiy obrazlar orqali tadqiq qiladi. Qahramon tanlovida ijodkorning ma'lum maqsadi, g'oya va o'ylari o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Mualliflar fantaziyasi, dardu alamlari mahsuli bo'lgan kahramonlar, asosan o'z ijodkorlari nomidan faoliyat ko'rsatadi,

so'zlaydi. Shuning uchun san'atning boshqa sohalari kabi so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyot uchun ham qahramon tanlovi muhim o'rin tutadi. Chunki "Adabiy qahramon orqali yozuvchi ma'lum bir nuqtai nazardan kelib chiqib, insonni tushunishni o'zi tanlagan jihatlarining ta'sirida ifoda qiladi. Yozuvchining orzu-o'ylari, maqsad va vazifalari ma'lum bir qahramonda o'z aksini topishi mumkin. N.A.Dobrolyubovning ta'kidlashicha, "san'atkorni mavhum g'oya va umumiy prinsiplargina emas, balki shu ideyallarni o'zida aks ettirgan obrazlar qiziqtiradi". Shuning uchun ham bosh qahramonning asar poetikasida tutgan badiiy-estetik rolini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shu bilan birga qahramonning qay darajada orzu-umid yukining naqadar zalvorli ekanligi bilangina emas, balki muallif iste'dodi bilan ham belgilanishini ta'kidlash lozim.

XX asr adabiyotida davrning dardu alamlari, kayfiyati insonlarning tashvish va orzu-o'ylarini yuksak badiiylik darajasida aks ettirgan ko'plab asarlar paydo bo'ldi. "Kichkina shahzoda" va "Oq kema" asarlarini ham. Shubhasiz, shunday asarlar sarasiga kiritish mumkin.

"Kichkina shahzoda" va "Oq kema"dan avval o'qigan nozik didli o'quvchi (aksincha bo'lishi ham mumkin, chunki Sent-Ekzyuperi ertagi 1985 yili o'zbek tiliga to'la tarjima qilindi) qirg'iz yozuvchisi qahramoni bilan tanishar ekan, kichkina shahzodani bir bot yodga olishi va har ikki qahramon o'rtasida qandaydir bir boqishda sezilmaydigan o'xshashlik yoki yaqinlik alomatlari borligini payqashi tabiiy: "Oq kema"dagi bola o'z dardi, alami, tashvishu quvonchlari, xullas, o'ziga

xos ruhiy dunyosi bilan fransuz yozuvchisi qahramonini yodga soladi. Bunday o'xshashlikdan ba'zilar: "Bu adabiyotlararo aloqaning natijasi, ya'ni Ch.Aytmatov qahramoni Sent-Ekzyuperi ertagi ta'sirida yaratilgan bo'lishi mumkin", degan shoshilinch xulosa chiqarishlari mumkin. Aslida shundaymi? Har ikki asar uchun bolalarning bosh qahramon qilib olinishining sababi nimada? Ular nega ismsiz? Shunga o'xshash savollar zanjiriga javob berish uchun yana asarlarning davri voqealariga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi.

"Kichkina shahzoda" ertagi yaratilgan davrda Sent-Ekzyuperi vatani Fransiyada, yozuvchi iborasi bilan aytganda "sovuq va ochlik hukm suradi". Muallif o'z vatanining fojiali taqdiri haqida o'quvchini ogoh etgandek bo'ladi. Ertak yozuvchining Fransiyada yashayotgan do'sti Leon Vertga bag'ishlov so'zlari bilan boshlanadi: "Bu kitobchani katta yoshdagi odamga bag'ishlaganim uchun bolalardan kechirim so'rayman. O'zimni oqlash uchun shuni aytishim mumkinki, bu katta yoshdagi odam mening eng yaxshi do'stim bo'ladi. Buning ustiga u dunyodagi hamma narsani, hatto bolalarga atab chiqarilgan kitobchalarni ham tushunadi...kitobchamni bir paytda mana shu katta yoshdagi do'stimning o'rnida bo'lgan kichkina bolakayga bag'ishlayman. Axir kattalarning hammasi ham avval-boshda yosh bola bo'lganlar, faqat buni ularning ozginasi biladi, xolos".

Bu bag'ishlovni asarda ko'tarilayotgan muammolar dunyoda mana shu davrda bo'layotgan voqealar bilan uzviy bog'liq ekanligiga ishora deb anglash mumkin. Bag'ishlovda ertak bir paytlar Leon Vert o'rnida bo'lgan kichkina bolakayga bag'ishlanayotganiga alohida urg'u

berilmoqda. Bag`ishlov o`z navbatida filni butunasicha yutib yuborgan bo`g`ma ilon, kichkina shahzoda sayyorasini kashf etgan turk astronomi va asosiy voqealarga hech qanday aloqasi yo`qday bo`lib tuyuluvchi asar ekspozitsiyasi bilan uzviy bog`liqdir.

Ertakning yaratilish tarixi haqida tadqiqotchilar tomonidan turlicha fikrlar bildiriladi, taxminlar qilinadi. “Kichkina shahzoda” motivlari fransuz yozuvchisida urush boshlanishi bilan paydo bo`la boshladi, - deb yozadi adabiyotshunos R.Grachyov, - bu davrda u tez-tez bir xil suratni: qanotli va qanotsiz bolani bulutlar ortidan yerga, uylarga va qo`zichoqqa hayron boqib turgan holatni chizadi. Bu ajoyib bola yozuvchiga tinchlik bermadi”.

Yozuvchida “Kichkina shahzoda”ni yozish haqidagi fikr 1935 yilning dekabrda uning samolyoti Liviya cho`llarida avariya uchragan paytda paydo bo`lgan bo`lsa kerak, degan taxminlar ham mavjud. Lekin fransuz yozuvchisi ijodi tadqiqotchilarning ko`pchiligi asar yaratish g`oyasi paydo bo`lishini 1927-1929 yillar bog`laydilar. Bu davrda Sent-Ekzyuperi Kap-Jyubi (Marokash) aerodromining boshlig`i bo`lgan. O`sha yerdan deyarli har kuni samolyotda havoga ko`tarilib sahroi Kabirning ichkarilariga uchgan. Bu zarur mashg`ulot edi. Chunki o`ta yuqori namlikdan samolyot motorlari zanglay boshlashi mumkin edi.

I.2. «KICKINA SHAHZODA» VA “OQ KEMA” ASARLARIDAGI MIFOLOGIZMLARNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

“Kichkina shahzoda” va “Oq kema” asarlarini tahlil qilish jarayonida boshqa manbada uchramaydigan individual mifga va unutilayotgan xalq ogʻzaki ijodi namunasi asosida badiiy sayqallagan yoki transformatsiyalashtirilgan mifga duch kelamiz. Asarlardagi fantastika, ramz, va majoz juda ham goʻzal hamda purmaʼno. Ekzyuperi oʻz asarida original mifologik mazmunga ega boʻlgan majji bola obrazini yaratadi. Kichkina shahzoda – muallif fantaziyasining mahsuli. Bolaligida buvisidan eshitgan ertaklar haqidagi xotiralarining mahsuli boʻlsa, “Oq kema”dagi rivoyat esa yosh Chingizga buvisi Oyimxon tomonidan singdirilgan xalq ogʻzaki ijodi. Udum va anʼanalariga hurmat va muhabbatning natijasidir. Ch.Aytmatov buvisi haqida xotirlab shunday deydi: “Mening bolalik yillarimni ertagu qoʻshiqlar bilan bezagan, oqinu qoʻshiqchilar bilan uchrashuvimga sababchi boʻlgan inson buvim boʻladilar. U kishi qayerga borsalar ham, mehmongami, toʻygami yoki azagami, meni birga olib borar edilar. Buvimning koʻrgan tushlari shu qadar qiziq ediki, bir oz uyquga ketdilar, darhol u kishini uygʻotib tushlarini aytib berishlarini soʻrardim. Qisqa tushlar meni qanoatlantirmas edi. Shunda buvim qoʻshnilar koʻrgan tushlarida qarz olishga chiqib ketardilar. Keyinchalik tushunib yetishimcha, bu tushlarni u kishi men uchun toʻqib chiqar ekanlar.

Muallif hayotiy bo'lmagan jonzotga 6-7 yoshdagi bolaga xos xususiyatlarni ato etgan: Shahzoda qiziquvchi, ishonuvchan. Barcha jonli mavjudot uni hayratga soladi. U o'zining mo''jazgina sayyorasida parvarish qilgan atirgul bilan birga yashaydi. Sent-Ekzyuperi ana shu kichik sayoraning (undagi atirgul va vulqonchalarning) egasi bo'lgan jajji bolaga nisbat berib shahzoda deb atagan bo'lishi mumkin. Shahzodaga go'zal va nozik gulining injiqliklaridan bezganday bo'ladi va dunyoni anglab yetish uchun sayohatga o'tlanadi. Lekin sayohati davomida ko'rgan-kechirganlarining hammasi o'z ma'nisizliklari bilan uni hayratga soladi. Bularning barchasi inson kamchilik va nuqsonlarining Ekzyuperi tomonidan ochiq, grotesk shaklidagi tasviridir. Shahzodaning haqiqiy sayohati yer sayyorasida bo'lib o'tadi. Yerga sayohat bolaning be'mani kattalar dunyosiga kirib kelishini anglatadi. "Kichkina shahzoda" esa boshdan-oyoq bolalik dunyosi va kattalar o'rtasidagi ziddiyatlar asosiga qurilgan. Shuning uchun ham yechimi ana shu sayyoradagi voqealar bilan bog'liq. Sent-Ekzyuperi "Kichkina shahzoda" boshlanishida asotir va marosimlarga borib taqaluvchi qadimiy sehrli ertak semantikasini qayta jonlantiradi: Shahzoda sayyorama-sayyora kezib bir qancha sinovlardan o'tganday bo'ladi va oxir-oqibat, yerda u haqda yangi bilimlarga ega bo'ladi. Hozirgi zamon folkloristikasi sehrli ertaklarning kelib chiqishini asosi deb hisoblayotgan qadimiy bag'ishlov marosimning asl mazmuni ham shunday.

Har ikki vaziyatda ham kishilik jamiyatda qonun-qoidalaridan boxabar bo'lgan donishmand zotlar asotir qahramonlarini ogohlantiradilar: birinchi asardagi Ilon shahzodani jamiyatdagi

tarqoqlikdan ogoh etsa, “Oq kema”dagi dono kampir Shoxdor Ona bug`ini inson zotida mehr-oqibat, muhabbat taqchilligidan boxabar etmoqda. Ma’naviy tarqoqlik va mehr-muhabbatning barkamol emasligi esa kishilik jamiyati rivojiga to’siq bo’layotgan ma’naviy muammolardan sanaladi.

Umuman, jahon xalqlari folklori va adabiyotida Tulki, asosan ayyorlik timsoli sifatida gavdalanadi. Sent-Ekzyuperi ertagida bu jonzot bolaga hayot qonuniyatidan saboq beruvchi donishmand ustoz timsolini olib, yangicha mazmun kasb etadi.

Demak, har ikki muallif qalamida Tulki timsoliga yangicha vazifa yuklanadi.

Ertakka Tulki obrazining olib kirilishiga muallif hayoti bilan bog`liq voqealar ham sabab bo’lgan, deb aytishimiz mumkin va bunga asosimiz bor. Chunki Muallif “Kichkina shahzoda”dan avval yozilgan “Bashar sayyorasi”da ham sahroda hayot kechiruvchi feneka deb ataluvchi tulki haqida hikoya qiladi. Avariyaning so’ng sahroda ochlik va tashnalikdan qiynalib o’lim bilan yuzma-yuz turgan uchuvchi sahro tulkisini uchratib qoladi. Bu Sent-Ekzyuperini hayot va uning qonuniyatlari haqida fikr yuritishga undaydi. “Izlar yana meni in yoniga boshlab keldi. Albatta, fenekalar hozir inlarida. Ular mening og`ir qadam tovushlarimni eshitib qo`rquv bilan kutishmoqda. Men ularga dedim: “Tulkivoy, og`ayni, mening ahvolim chatoq... biroq shunday bo’lsa-da sening qanday yashashing va nima qilayotganing men uchun qiziqarli ...”. Sahroi Kabirda tulki bilan bo’lgan uchrashuv taassuroti yozuvchini tark etmaydi. “Kichkina shahzoda”da muallif ana shu past bo’yi va uzun quloqlari bilan ajralib turuvchi sahro tulkisi obrazini

xayolan tiklaydi. (Ertakka chizilgan illyustratsiyada ham muallif tulkini ana shunday tasvirlaydi) va dono fenekaning bir qancha yangi xususiyatlarini ham o'zida mujassamlashtirgan obrazni yaratadi.

“Oq kema” qissasiga asotir va ertak unsurlarining olib kirilishi haqidagi masalaga to'xtashdan avval asar yaratilgan davrda sobiq Ittifoq adabiyotidagi vaziyatga qisqacha to'xtab o'tishimizga to'g'ri keladi. Zero, qissaning paydo bo'lishiga ana shu davrdagi adabiy jarayon va ijtimoiy muhitning ham ta'siri katta.

Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasichalik katta shov-shuv va bahslarni keltirib chiqarmadi. O'zida realistik tasvir an'analari, asotir va simvolik unsurlarni sintezlashtirgan bu qissa hozir ham adabiyotshunoslar diqqat markazida turadi. Bu asosiy sababi asarda ustalik bilan tasvirlangan realistik tasvir manzaralari yoki qahramonlar psixologiyasi emas (Ch.Aytmatov bu sohalarning ustasi sifatida bu davrgacha yozgan asarlari bilan allaqachon shuhrat qozongandi), balki undagi mifologik unsurlar bo'ldi. Biz quyida asar poetikasida muhim o'rin tutuvchi ana shu unsurlar haqida to'xtalmoqchimiz.

Ch.Aytmatov qissada boshqa asotir va ertaklarda uchramaydigan, original “Oq kema” obrazini yaratadi. U soflikning ramzi. V.Voronov “Oq kema”ni yaxshi, muhabbatli insonlar, yana ota-ona, haqqoniylik va baxt haqidagi orzuga qiyoslaydi. Bola doimo poklikka – “Oq kema”ga intilib, uni sog'inib yashaydi. Va nihoyat, asar finalida Zrozqullar jamiyatini tark etib, unga tomon suzib ketadi. “Kichkina shahzoda”dagi bola esa poklik maskani – ona sayyorasidan kattalar dunyosiga sayohat qiladi va bu dunyoning naqadar bema'ni ekanligiga ishonch hosil qilgach, o'z maskaniga qaytadi. Oq kemadagi

bola go`yoki, ikki xil dunyoda – xayoliy va real dunyo oralig`ida yashaydi. Bizning nazarimizda, qissaning beshinchi qismidan boshlab qahramon uchun real dunyo tugaydi va u butunlay asotir dunyosiga sho`ng`ib ketadi. Bu uning bug`ularni o`z ko`zi bilan ko`rgan paytdan boshlanadi. Shoxdor ona bug`u haqidagi bobosi so`zlab bergan, lekin bola ko`pam ishonavermaydigan (“Bobom buning hammasi bo`lgan ish, deydi”) asotir realikka aylanadi.

Ch.Aytmatov ijod yo`liga nazar tashlasak, Kubilyus fikrining aksini kuzatishimiz mumkin. Dastlabki asarlari “Jamila”, “Birinch muallim” va “Sarviqomat dilbarim” sof realistik an`analar asosida yaratilgan bo`lsa, “Alvido, Gulsara!” qahramoni Tanaboy fojiasi asosi eposga borib taqaladi. Unda qirg`iz folklori namunalari “Kojojash” va “Qoragul”dan epik fon sifatida foydalangan. “Oq kema”da asotir asar yadrosini tashkil etsa, “Sohil bo`ylab chopayotgan olapar”da nivx xalqi folklori obrazlarini qayta jonlantiradi.

Demak, “Oq kema” qissasida folklor an`analaridan foydalanishni yangi pog`onaga olib chiqdi va bu sohada o`ziga xos maktab yaratdi.

Sent-Ekzyuperi va Ch.Aytmatov asarlaridagi mifologizmlarni qiyoslab chiqib, quyidagi xulosaga keldik:

- Har ikki yozuvchi ham o`z asarlarida, boshqa ko`plab ijodkordan farqli ravishda, mualliflik asotir namunalari yaratishadi;

- Fransuz yozuvchisining ba`zi qahramonlari (shahzoda, tulki, ilon) ertaklar olami chegaralarini yoritib, real dunyoga kirib keladilar. Ch.Aytmatovning “Oq kema”sidagi bola esa XX asr 70-yillari real hayotidan ertak olamiga kirib boradi;

- Har ikkala asarda ham mif va reallik uyg'un holda beriladi. Shuning uchun ularda real va ertak dunyosi o'rtasida aniq chegara o'tkazish qiyin. Bu holat asotirlarning ishonchli va jonli chiqishini ta'minlagan;

- O'z g'oyasi bilan har ikki asardagi asotir bir-biriga yaqin turadi: Sent-Ekzyuperida barcha narsa uchun mas'ullik g'oyasi oldinga surilsa, Ch.Aytmatovda o'z nasli uchun mas'ullik g'oyasi asosiy hisoblanadi;

- Shu bilan birga, asotir unsurlari asarlarga turli usullar bilan olib kiriladi. "Kichkina shahzoda"da mif asar boshidan paydo bo'ladi. Unda muallifning o'zi ham ishtirok etadi va keyin hikoya qilib beradi, o'z illyustratsiyalari bilan hikoyadagi voqealar haqiqat ekanligini tasdiqlamoqchi bo'ladi;

- "Oq kema"da asotir faqat bola xayolida paydo bo'ladi. Murg'ak va beg'ubor qalb egasi bo'lgan bola yaxshigina xayolparast ham bo'ladi. U unsursiz va zerikarli real hayotga ertak olamini qarshi qo'yadi.

Xullas, turli davr, madaniyatga xos bo'lgan mif, majoz va ertak unsurlarini Sent-Ekzyuperi ham, Ch.Aytmatov ham o'z asarlarining badiiy-estetik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaganlar. Lekin ular butunlay vositadan mushtarak maqsadlarda – o'zlari yashayotgan davrning ma'naviy sohadagi muammolari orqali bashariyatning abadiy muammolarini badiiy tadqiq etish uchun foydalanganlar.

II BOB. SENT-EKZYUPERI IJODI O'ZBEKISTONDA

O'zbekistonda chet el adabiyoti vakillarining asarlarini tarjima qilish XX asrning 30-40 yillaridan boshlab asr oxirigacha bo'lgan davrda birmuncha rivojlandi. Ushbu davrda o'zbek o'quvchisi Dante Aligeri, Vilyam Shekspir, Migel de Servantes, Jorj Gordon Bayron, Shiller, Gyote, E.Xeminguey, G.Markes va boshqa jahon adabiyoti daholarining asarlarini ona tilida o'qish baxtiga muyassar bo'ldi. 30-40-yillardayoq chet el mumtoz dramaturglarining bir qancha asarlari o'zbek tilida sahna yuzini ko'rdi. Natijada G'arb adabiyotiga bo'lgan talab va qiziqish yanada ortdi.

O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizda Sent-Ekzyuperi ijodi bilan tanishish, asosan XX asrning 50-yillari oxiridan boshlangan. Bu davrda fransuz yozuvchisi asarlari biri-ketin rus tiliga tarjima qilina boshlagan edi. Shubhasiz, adib asarlarining O'zbekistonga kirib kelishida ularning rus tiliga qilingan tarjimalari muhim rol o'ynagan. Sent-Ekzyuperi asarlarining asosiy qismini rus tiliga o'giranlar. Ularning tarjimalari 50-yillar oxiri va 60-yillarning boshlarida Rossiyaning turli jurnallarida chop etildi. 1964 yilga kelib "Xudojestvennaya literatura" nashriyoti tomonidan Sent-Ekzyuperi asarlarining bir tomligini (36 bosma taboqda) nashr etdi. Shundan so'ng yozuvchi asarlari qayta-qayta nashr yuzini ko'rdi. O'zbek o'quvchilari ham rus tilidagi nashrlardan foydalanganlar. Lekin fransuz yozuvchisi asarlarini o'zbekchalashtirish, gumanist adib ijodi bilan bir necha millionli o'quvchilarni yanada yaqinroq tanishtirish davr talabi edi. 1963 yilga kelib Sent-Ekzyuperining ilk asari o'zbek tilida nashr etildi.

O'zbekistonlik tanqidchilar va ijodkorlar o'z asarlari va maqolalarida fransuz yozuvchisi ijodining u yoki bu jihatini ta'kidlab o'tgan o'rinlar yo'q emas. Lekin Sent-Ekzyuperi ijodi anchagina batafil tadqiq etilgan o'zbek tilidagi dastlabki ish Xurshid Davronning kitobga yozgan so'ngso'zi hisoblanadi. Muallif o'z maqolasida Sent-Ekzyuperi shaxsiga va ijodiga qisqacha tavsif berish bilan birga "Tungi uchish" va "Kichkina shahzoda" asarlari tahliliga batafsilroq to'xtaydi. X.Davron Sent-Ekzyuperining ilk asari "Janubiy pochtachi"ning yaratilishi tarixiga to'xtar ekan shunday deydi: "Tungi uchish" va "Kichkina shahzoda" asarlari haqida yozishdan oldin "Janubiy pochtachi" haqida gapirib o'tish zarur. Nega? Chunki "Tungi uchish" ham "Kichkina shahzoda" ham aynan mana shu asardan o'sib chiqqanligi shakshubhasizdir". Tanqidchi "Tungi uchish" yozuvchi zamondoshlari yashayotgan jamiyatda avj olgan xudbinlikka qarshi yozilgan, burchning go'zalligi va ulug'vorligi haqida hikoya qiluvchi asar ekanligini ishonchli dalillar bilan izohlaydi. Maqolaning uchdan bir qismi "Kichkina shahzoda" asari tahliliga bag'ishlangan. Muallif "Kichkina shahzoda"ni bizning tasavvurimizdagi juda ko'p tushunarli o'zgartirish kuchiga ega asar" deb baholaydi.

Umuman olganda X.Davronning maqolasi sharq xarakterida bo'lib, Sent-Ekzyuperi ijodi bo'yicha o'zbek tilida yozilgan dastlabki ish sifatida e'tiborga molikdir. 1997-2001 yillarda biz ham Sent-Ekzyuperi ijodi, xususan, "Kichkina shahzoda" poetikasi bo'yicha bir necha maqolalar e'lon qildik.

Mamlakatimizda hamon rus tili orqali tarjima qilish asosiy o'rin egallasa-da, so'nggi yillarda bevosita originaldan o'zbek tiliga tarjima qilish salmog'i birmuncha ortganligi kuzatilmoqda. Biz ishimizda O'zbekistondagi tarjimachilikning hozirgi ahvolini yoki sohaning nazariy-amaliy muammolarini tadqiq etishni maqsad qilmaganmiz. Zero, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, J.Sharipov, G'.Salomov, N.Vladimirova, N.Komilov, F.Sulaymonova singari adabiyotshunoslar tarjimachilik tarixi, sohaning nazariy masalalari, tarjima amaliyoti hamda badiiy tarjimaning adabiy aloqalardagi o'rni xususida muhim ilmiy xulosalarga kelganlar. Bizning ushbu bo'limdan ko'zlagan maqsadimiz XX asr fransuz-o'zbek adabiy aloqalarida muhim o'rin tutuvchi A.de Sent-Ekzyuperi ijodiy merosining o'zbek tiliga tarjima qilinishini, o'girilgan variantni original matn bilan qiyoslab tarjimaning badiiy-estetik saviyasini belgilashdan iborat.

Xullas, X.Sultonov tarjimasi ham shunga o'xshash juz'iy kamchiliklardan xoli emas. Shunday ekan, tarjima, ayniqsa "Kichkina shahzoda" singari nodir asarlar tarjimasida, tekst ustida juda ham ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab etadi. Buning uchun faqatgina asar yozilgan tildagi nusxadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shunga qaramay, M.Umarov va X.Sultonov tomonidan "Kichkina shahzoda" asarining o'zbek tiliga o'girilishi adabiy hayotda sezilarli voqea bo'ldi, deb hisoblaymiz. Ushbu tarjimonlar, ayniqsa, X.Sultonov varianti, Sent-Ekzyuperi ijodining O'zbekistonda tan olinishida muhim rol o'ynagani va bundan buyon ham ahamiyatga ega bo'lishi, shubhasizdir.

II.1. ALBER KAMYU IJODIDA INSON “MEN”I TA’SVIRI

Alber Kamyu ham haqli ravishda K.Dolgov ta’rif bergan faylasuflar sirasiga kiradi. Lekin shu bilan birga u nafaqat faylasuf balki yozuvchi, publitist va jamoat arbobi sifatida ham ma’lum va mashhur. Shuning uchun ham biz Kamyu merosini keng ma’nodagi ijtimoiy va madaniy hayot kontekstida tahlil qilishimiz lozim bo’ladi.

Alber Kamyu ijodi umumbashar mulki hisoblanadi. 1913-1960 yillar oralig`ida yashab ijod etgan fransuz adibi, faylasufi o’z davrida G`arbdan nihoyatda qadrlangan. Uni hatto “aqlar hukmdori” deb atashgan, ijodini Nobel mukofotiga loyiq deb topishgan. Lekin bizda yaqingacha A.Kamyu asarlari bir oz o’zgacha talqin bilan qarshi olindi. Unga nisbatan “Burjuaziya san’ati vakili”, “Tushkun adabiyot namoyandasi” degan tamg`alar qo’llanildi. Lekin XX asrning 90-yillaridan boshlab A.Kamyu ijodiga munosabat tubdan o’zgardi. O’zbek adabiyotida ham Kamyu ijodining ta’siri sezila boshladi. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov unga “Absurd tuyg`usini adabiyotga bosh qahramon sifatida olib kirgan adib” deb baho berdi.

A.Kamyu 1913 yili Jazoirning uncha katta bo’lmagan Mondovi shaharchasida qishloq xo’jaligi ishchisi oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Lyusen Kamyu Birinchi jahon urushi boshlarida Marnedagi urushda halok bo’lgan. Ota o’limidan so’ng oila Jazoir shahriga ko’chib keladi. 1924 yili Belkurdagi boshlang`ich maktabni tugatgan Alber litseyga o’qishga kiradi. Litseyni tugatgach, mahalliy universitetning falsafa-tarix fakultetiga o’qishga kiradi.

1930 yili Kamyu sil bilan kasallanadi. Kasallik unda ekzistensial dunyoqarashni shakllanishiga sabab bo'lgan faktorlardan biri bo'ldi. Bu davrda u o'lim, insonning qochib qutulib bo'lmaydigan qismati haqida juda ko'p mulohaza qiladi. Kundaliklarida o'limdan qo'rqishi, unga tayyor bo'lish yo'llarini qidirayotganini yozadi. Kamyu ruhning adabiyligiga ishonmagan bo'lsa-da, kimda-kim saodatli hayot kechirgan bo'lsa, u saodatli o'limga qodirdir, degan xulosaga keladi. Ekzistensializm masalalarida Platin va avgustin qarashlari ta'sirida bo'ladi. Diplom ishini ham ularning falsafasiga bag'ishlaydi. Kirkegor, Nisshe, Xaydegger, Shestov singari faylasuflar ta'siri ham uni chetlab o'tmaydi.

U 1935 yilda tashkil etilgan ko'chma "Mehnat teatri"ni tashkil etilishiga bosh-qosh bo'ladi. Bu yerda Kamyuning aktyorlik va rejissyorlik iqtidori namoyon bo'ldi. 30-yillarning oxirlarida "Ekip" teatr truppasi bilan butun Jazoirni kezib chiqadi. Biroq bu davrda Kamyu sahnada rollar ijro etish bilan birga badiiy ijod bilan shug'ullanishni ham bahs qilmadi: "Kaligula" piyesasining dastlabki, chizgilari, dastlabki nasriy to'plamlar paydo bo'ldi, "Saodatli o'lim" romani yozildi, lekin nashrga berilmadi. Bu davrda "Sizif haqida asotir" deb nomlanuvchi falsafiy esse ustida ish boshlandi. 1940 yildan Kamyu Parijda yashay boshladi. O'sha yilning yozida "G'aroyib urush" Fransiyaning mag'lubiyati bilan tugagandan so'ng Kamyu Lionga va u yerdan Jozoirga keladi. Bir qancha vaqt o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. 1942 yili Kamyu yana Fransiya qaytadi va Qarshilik harakatining ikkita guruhi birlashishi natijasida paydo bo'lgan "Komba"

deb ataluvchi maxfiy guruh safiga kiradi. 1944 yilda “Anglashmovchilik”, 1945 yilda esa “Kaligula” asarlari sahnalashtirildi.

Urush yillari nashr etilgan asarlaridan ikkitasi – “Begona” va “Sizif haqida asotir” Kamyuga katta shuhrat olib keldi. 1947 yilda nashr etilgan “vabo” romani muallif nomini yanada mashhur qildi. 50-yillarning o’rtalari va oxirida Kamyu yana teatrqa qaytib, o’zining hamda boshqa mualliflar (Dostoyevskiy, Folkner)ning asarlarini sahnalashtirdi. 1951 yilda nashr etilgan “Isyonkor odam” falsafiy pamfleti Kamyuning bu turdagi so’nggi yirik asari edi. 1957 yili Nobel mukofoti berilishi munosabati bilan qilingan ma’ruzalar “Shvetsiya ma’ruzalari” nomi bilan mashhur bo’lib, dunyoning barcha burchaklarida ham tan olindi.

1960 yilning 4 yanvarida Rojdestvo bayramini o’tkazib Parijga qaytayotgan Kamyu o’z mashinasida avariya uchraydi va halok bo’ladi. U bu davrda “dastlabki inson” romani ustida endigina ish boshlagan edi. Kamyu o’limidan so’ng uning yozuv daftarchasidagi qaydlar va yoshlik yillaridagi romani – “Saodatli o’lim” nashr etildi. Kamyu ijodi haqida fikr yuritishdan avval ekzistensializm falsafasi haqida to’xtab o’tish lozim bo’ladi. Chunki u yozuvchi badiiy-estetik tamoyillarining shakllanishida ekzistensializm falsafasi asosiy o’rin egallaydi.

Kamyu falsafiy qarashlarining tadriji tarixiy sharoit bilan bog’liqdir. Muallifning o’zi ham asarlarining ikki turkumga bo’linishi haqida gapiradi. Dastlabki – absurd mavzusiga “Sizif haqida asotir” essesi, “Begona” qissasi va “Kaligula” pyesasi kiradi. Isyon mavzusiga esa “Isyonkor odam” essesi va “Vabo” romanini kiritish mumkin.

A.Kamyuning “Sizif haqida asotir” asarida absurd tushunchasi ekzistensializmning asosiy tamoyili ekanligi tadqiq etiladi. Odamni qurshab turgan tabiat unga qarama-qarshi va begona bo’lib, insonning ichki tuyg’ulari va tabiati o’rtasida hech qanday aloqa yo’qdir. Kamyuning fikricha, mushukning olami – bu uning olami, insonning olami faqat ungagina xos. Ular o’rtasida hech qanday o’xshashlik yo’qdir. Tabiat jonsiz, his-tuyg’u borligini payqaganda, uni his qilganda o’zini bu qadar tushkun va yolg’iz his qilmagan bo’lar edi. “Hayot yashashga arziydimi?” degan savolga Kamyu tomonidan ijobiy javob beriladi. Demak, naqadar ayanchli va zerikarli bo’lmasin, inson o’zida his qilgan majburiyat tufayli yashashi shart.

Kamyu o’zining har bir asarida inson va uning hayotdagi o’rni, o’limning haq ekanligi, hayotning mazmuni haqida fikr yuritadi va ana shu savollarga javob izlaydi. Uning badiiy merosi XX asr adabiyotining takrorlanmas sahifalaridan sanaladi. Biz unga qayta-qayta murojaat qilishimiz va har safar o’zgacha ma’naviy ozuqa olishimiz mumkin.

Biz yuqorida G’arb modernistik adabiyotiga, xususan A.Kamyu ijodiga qiziqish XX asrning 80-yillariga kelib ortganligini ta’kidlagan edik. Bu o’rinda ana shu davrda yaratilgan asarlardan biri – Murod Muhammad Do’stning “Galatepaga qaytish yohud saodatmand G’aybarov rivoyati” qissasiga e’tiborni qaratish. Uni A.Kamyu asari bilan qiyoslash lozim deb hisoblaymiz. “Galatepaga qaytish” M.Muhammad Do’stning dastlabki yirik asari bo’lib, unda o’zbek ziyolilarining hayoti, tiriklik deb ataluvchi xilqatdagi murakkab, gohida besamar izlanishlari va ana shu izlanishlar tufayli inson qalbida sodir bo’luvchi kechinmalar haqida o’zgacha ohangda hikoya qilingan.

Umuman, so'nggi yillar o'zbek adabiyotida hayotni falsafiy talqin etish, inson ruhiy olamining o'ziga xos qatlamlariga kirib borish, umr mazmuni haqida mulohaza qilishga e'tibor ancha katta. "Otamdan qolgan dalalar", "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Qora kun", "Muvozanat" va yana o'nlab asarlarda Sharq va G'arb badiiy tafakkuri, an'ana va uslublari uyg'un holda namoyon bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotini belgilovchi iste'dodlarning shakllanishi, o'z uslubi hamda ovozigacha ega bo'lishida Sharq adabiyoti bilan birga G'arb adabiyoti, xususan, A.Kamyu ijodining o'ziga xos ta'sir kuchi bo'lmoqda va bundan buyon ham bo'lishi tabiiy hol deb hisoblaymiz.

II.2. O'ZBEK ROMANCHILIGIDA NOAN'ANAVIY TASVIR KO'RINISHLARI

XX asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek nasri va she'riyatida inson "men"ini tadqiq etishga e'tibor ancha jonlanadi. Ayniqsa, nasrda qahramonni muhit, jamiyat va siyosat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki inson hamda o'ziga xos olam sifatida o'rganish, kashf etish birlamchi mezonga aylanib qoldi. Shu bilan birga, inson tabiatidagi qarama-qarshiliklarni tasvirlashda noan'anaviy shartlik usulinnig turli ko'rinishlari ko'zga tashlana boshlanganligi va XX asrning 1-yarmidan boshlab G'arbda keng miqyosda tajribalar o'tkazilgan modernistik adabiyotga ham qiziqish ortib borganligini kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi kunga kelib adabiy tanqidchilikda o'zbek adabiyotidagi modernistik izlanishlar haqida maqolalar, bahslar, hatto ilmiy tadqiqotlar ham paydo bo'lganligini tan olishimiz kerak. Lekin modernistik, noan'anaviy yoki absurd adabiyoti haqida bildirilayotgan ba'zi mulohazalarda yuzaki qarashlar, masala mohiyatini chuqur anglab yetmaslik yohud asarlarga sof realistik asarlarga qo'yiladigan talablar asosida baho berish holatlari ham ko'zga tashlanmoqda. Kuzatishlarimiz bu borada chuqur tahlilni, shoshmaslikni, har qanday asardan modernizm unsurlarini qidiravermaslikni talab etmoqda. Vaholanki, tasvirdagi modernistik ko'rinishlarni birdaniga tushunib olish qiyin yoki O.Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, "Modernizm bir turdagi jo'n hodisa emas". Shuning uchun ham o'zbek nashridagi modernistik yoki noan'anaviy tasvir unsurlariga to'xtashdan avval ushbu atamaning paydo bo'lish sabablari, uning ijtimoiy-falsafiy negizlari haqida to'xtalishimiz lozim bo'ladi.

Hech bir mamlakat, hech bir millat o'z qobig'iga o'ralib yashay olmaganidek, milliy adabiyot ham adabiy aloqalarsiz yashay olmaydi. Ayniqsa, ilmiy-texnikaviy rivojlanishning yuksak nuqtalariga erishilganligining insoniyatga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy oqibatlari yaqqol namoyon bo'layotgani zamonaviy adabiyot tasvir ko'lami va an'analariga ham ta'sirini o'tkazdi. O'tgan asrning birinchi yarmidan boshlab adabiy janrlar texnikasida yaqqol o'zgarishlar ko'zga tashlana boshlandi. Bunday tajribalar ko'proq G'arb adabiyotida sodir bo'la boshladi. Bunday jarayon avangard yoki modernistik san'at deb ataldi va an'anaviy sanoat uchun yangi, novatorlik bo'lib tuyulgan barcha ko'rinishlar ana shu va boshqa bir qancha nomlar bilan atala boshlandi.

Biroq, avangard va modern atamaları bir-biriga yaqin mazmunni anglatga ham, ular keskin farq qiluvchi tushunchalar ekanligi ma'lum bo'ladi. Agar modernistik san'at shakl va mazmun (sintaksis va semantika) jihatdan qo'llanilgan novatorlikni nazarda tutsa, avangard asarlarda pragmatika birinchi planga chiqadi. Rus olimi M.Shapir fikricha avangardda san'atning faol harakati, ya'ni kishini hayratga solib, unda faol reaksiya uyg'otishi asosiy hisoblanadi. V.Rudnyov esa simvolizm. Ekspressionizm va akmeizmni modernistik san'atga, futurizm, syurrealizm, dadaizmni avangard yo'nalishiga qo'shadi. Bundan tashqari, G'arb adabiyoti uchun modernizmning quyi chegarasini realizm bilan yuqori chegarasini postmodernizm bilan belgilash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham modernizmning realizm va postmodernizmdan farqli jihatlarini aniqlab olish lozim. Ana shu o'ziga xosliklar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish quyida tahlilga tortiladigan asarlar uslubini aniqlashda ham qo'l keladi, deb hisoblaymiz.

Realistik yo'nalishda bolalik va bolalar haqida qator asarlar yaratilgan bo'lsa, modernizm uchun ushbu mavzu u qadar xarakterli emas. Bunda bolalik boy berilgan lahzalar yoki ruhiy xastalik tufayli ayanchli xotiralarga aylangan davr sifatida tasvirlanadi. Shu o'rinda modernizm va postmodernizmning dastlabki mumtoz namunalaridan biri sanalgan M.Bulgakovning "Usta va Margarita" asaridagi o'ziga xos epizodni yodga olish lozim. Margarita uchish davomida Moskvadagi kvartiralardan biriga kirib qoladi va u yerdagi bir bola bilan suhbat quradi. Muallif ushbu epizod orqali jodugarga aylangan Margarita farzand ko'ra olmasligini ta'kidlagan. Yoki dunyoning kelajagi

yo'qligiga, u havfli bir ofat (fashizim, atom bombalari, xalqaro terrorizm) orasida turganligiga urg'u beriladi. Yuqorida tahlilga tortilgan "Kichkina shahzoda" qissa – ertagida ham bolalik faqat uchuvchining xotiralarida namoyon bo'ladi. Muallif ana shu uzoq bolalikni qo'msab, sog'inib yashaydi va uni kattalarning moddiy qiziqishlar dunyosiga qarshi qo'yadi.

Demak, modernistik tasvir o'zidan avvalgi biz uchun an'anaviy yoki mumtoz sanalgan realistik tasvir prinsiplarini keskin rad etib, badiiy shakl jihatdan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'ldi. Endi ana shu tasvir prinsiplarini modernizmdan keyingi yo'nalish – postmodernizm bilan taqqoslash esa modernistik tasvir xususiyatlari haqida yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lishimizga yordam beradi.

Shunday qilib, matn reallikni aks ettirmaydi, balki yangi reallikni yoki realliklarni kashf etadi. Biz bilgan real olam o'rnini virtual realliklar egallaydi.

Demak, yuqoridagi modernizmning o'ziga xos tamoyillari va tasvir an'analari tahlilidan ushbu yo'nalishda individuallistik nuqtai nazar, inson "men"ini tadqiq etish asosiy xususiyat ekanligiga amin bo'ldik. Badiiy adabiyot o'z taraqqiyotining barcha davrlarida insonni turli tomondan va turli qamrovdan tadqiq etib kelgan. Lekin XX asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek nasri va she'riyatida inson "men"ini tadqiq etishga e'tibor ancha jonlandi. Ayniqsa, nasrda qahramonni muhit, jamiyat va siyosat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki takrorlanmas, o'ziga xos olam sifatida o'rganishga e'tibor kuchaydi.

To'g'ri, adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, hozir biz talqin qilayotgan ma'nodagi moderncha yoki noan'anaviy tasvir namunalarini Alisher Navoiydan boshlab Abdulla Qahhor asarlarigacha uchratishimiz mumkin bo'ladi. Lekin shu davrgacha romantik va realistik tasvir prinsiplari asosida asarlar yaratilgan o'zbek adabiyotida boshqa usullar hech qachon asosiy hisoblanmagan va noan'anaviylik muallif badiiy-estetik niyatini yetkazib berishda vositalardan biri sifatida qo'llanilgan, xolos. XX asr 80-yillarining oxirlarigacha bo'lgan sovet adabiyotshunosligi esa bunday tasvir an'analari "G'arbga xos individualistik, tushkun" adabiyot xususiyatlari deb hisoblangan va tan olishni istamagan. Biroq dunyo siyosati, iqtisodi va ijtimoiy sohalaridagi globallashuv adabiy jarayonga ham o'z ta'sirini yetkazmay qolmadi. 80-yillarning 2-yarmi va 90-yillarning dastlabki yillarida o'zbek adabiyotida noan'anaviylikni realistik tasvir bilan uyg'unlashtirish yoki sintezlashtirish ko'rinishlari ancha jonlangan bo'lsa, 90-yillarning o'rtalaridan XX asrning dastlabki yillarigacha asarlar dunyoga keldi. Bunday asarlar an'anaviy uslubdagi asarlarga nisbatan juda kam yozilgan bo'lsa-da, noan'anaviylik ta'sir bosh mezonini sanalgan, badiiy ijod namunalari yaratilishining o'zi o'zbek adabiyoti izlanishda ekanligidan dalolat beradi. Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov zamonaviy romanchilik haqida fikr yuritib shunday deydi: "Mustaqillik tufayli ilg'or jahon adabiyotining roman yaratishdagi yutuq, intilishlari bizga ham anglashilib, borayapti. Hozir Kafka, Kamyu, Sartr, Borxes, Markes, Xeminguey singari san'atkorlar mahorati, roman yaratish tafakkuriga e'tibor qaratish kuchaymoqda... Hozircha adabiyotimizda 4-5 roman, 10 ga yaqin qissa G'arb nasri ta'sirida yaratildi". Demak,

G`arb modern adabiyoti ruhida yaratilgan epik tur namunalarini tadqiq etish va ilmiy jihatidan baholash vaqti allaqachon kelgan. To`g`ri, matbuotda bunday asarlar haqida fikr va mulohazalar bildirilgan, ba`zi asarlar tadqiqotlar uchun ob`yekt bo`lgan. Lekin tadqiqotlarda zamonaviy adabiy jarayon tadrijini belgilashda modern san`atining o`rni, xususiyatlariga ham qisman baho berilgan bo`lib, u alohida tadqiqot ob`yekti qilib olinmagan. Bu ana shu bo`shliqni to`ldirish maqsadida zamonaviy epik tur janrlarida roman, qissa, hikoyalardagi noan`anaviy an`analarini monografik planda tadqiq etishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik. Yuqorida qisman ta`kidlanganidek, so`nggi yillarda yaratilgan nasriy asarlar poetikasini tadqiq etish adabiy jarayondagi noa`nanaviy ruh ustuvor bo`lgan asar namunalariga ob`yektiv baho berish imkonini beradi.

So`nggi 10-15 yil mobaynida yaratilgan asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular ichida ko`tarilgan problematikasi, badiiylik darajasi bilan boshqa asarlardan ajralib turuvchi romanlar talaygina ekanligi ma`lum qiladi. O`.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, Tog`ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o`lib bo`lmaydi”, shukur Xolmirzayevning “Olabo`ji”, Omon Muxtorning “Ko`zgu oldidagi odam”, Shoim Bo`tayevning “Qo`rg`onlangan oy” va boshqalar ana shunday romanlar sarasiga kiradi. Lekin mustaqillik yillarida yaratilgan badiiy-estetik jihatdan ahamiyatga molik bo`lgan barcha romanlarni tahlil etishni bir tadqiqot doirasiga sig`dirish qiyin bo`ladi. Shuning uchun noan`anaviy tasvir usullari va qahramon “men”ini tasvirlashdagi o`ziga xosliklari bilan ajralib turuvchi, va nihoyat, deyarli tadqiq etilmagan ikki romanni – Xurshid Do`stmuhammadning “Bozor” va

To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" asarlarini tahlil uchun asosiy ob'yekt qilib oldik. Adabiyotshunoslar U.Normatov, A.Rasulov, D.Quronov, Sh.Doniyorovalarning hozirgi adabiy jarayon haqidagi chiqishlarida ham bu ikki roman haqida bir muncha fikrlar bildirgan. Bundan tashqari, tadqiqotchi Z.Pardayeva mustaqillik davri o'zbek romanlariga ta'rif berar ekan, "Bozor" romanini ijtimoiy-falsafiy, "Kapalaklar o'yini"ni modernistik-absurd turkumiga mansub ekanligini qayd etadi.

Romanning paydo bo'lishi va unda ko'tarilgan problematika dunyoda va shu jumladan o'zbek jamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Dunyoning oltidan biri deb ataluvchi sobiq Ittifoqda va boshqa hududlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilar ongi, dunyoqarashi hamda hayotidagi o'zgarishlar juda ko'p axloqiy, falsafiy, ma'naviy parmalarga munosabatni o'zgartirdi. Muallif butun jamiyat tasvirini qamrab olish uchun epik turning eng imkoniyatga ega bo'lgan janriga murojaat qildi. Bundan tashqari, hayot modelini badiiy talqin etish uchun majoziy-falsafiy tasvir tamoyillariga tayanishga to'g'ri kelindi. Umuman olganda, X.Do'stmuhammad bozor orqali hayotning ramziy shaklini tasvirlaydi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hayotni, kishilar jamiyatini tasvirlash uchun turli ramziy, majoziy obrazlarga murojaat qilinganligiga amin bo'lamiz.

Adabiyotshunos Z.Pardayevaning ta'kidlashicha, "Modern romanlarining qahramonlari tom ma'nodagi individual shaxsiyatga ega bo'lib, ularning o'y-xayollari, betizgin mulohazalari ular yashayotgan badiiy hayot talqini orqali real hayot, real voqelikni anglashimizga

yordam beradi”. Haqiqatdan ham hayot tarzi boshqalarnikiga o’xshamaydigan qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish barobarida bashariyat dunyosidagi tartib va qonuniyatlar aniq va ravshan tushunib yetiladi. A.Kamyuning “Begona”sidagi Merso ismli yigitning o’ziga xos hayot tarzi, jamiyatdagi insonlardan ajralib turuvchi ruhiy dunyosi, xatti-harakatlari bizni inson va uning hayotidagi mazmun hamda mohiyat haqida fikrlashga majbur etadi. Shu o’rinda To’xtamurod Rustamning “Kapalaklar o’yini” romanidagi original majoziy tasvirda ham teran ruhiy tahlil orqali insonlar hayotidagi muhim jihatlar tahlil etilganligini ta’kidlash lozim bo’ladi. 2000 yilda alohida kitob shaklida nashr etilgan ushbu asar haqida adabiy tanqidchilikda birmuncha fikrlar bildirilgan bo’lishiga qaramay, romanning adabiy jarayondagi o’rni aniq belgilanib berildi, deyish qiyin. To’g’ri, Z.Pardayeva “Kapalaklar o’yini”ni milliy istiqlol davridagi modernistik-absurd roman namunasi deb baholaydi. Lekin Y.Solijonov, P.Qodirov va boshqa adabiyotshunoslar asarning badiiylik darajasi haqida ancha tanqidiy fikrlarni bildirdilar. Shuning uchun ham ushbu roman poetikasi haqida o’z mulohazalarimizni bayon etishni lozim topdik.

Asardagi yana bir o’ziga xoslik uning kompozitsiyasida ham ko’zga tashlanadi. Epigraf tanlashda muallif original yo’l tutadi: romanning so’nggi sahifa, so’nggi satridagi Badal Armon tomonidan aytilgan “Ketaman! ... Baribir bosh olib chiqib ketaman!” hayqirig’i asar g’oyaviy mazmuniga ishora sifatida keltiriladi. Bundan tashqari, 255 betdan iborat roman hech qanday bob va qismlarga bo’linmagan. Bizningcha, eng oqimi tasvir uslubiga asoslangan asarda voqealar rivojidan ko’ra ana shu qoqea-hodisalar tufayli muallifda paydo bo’lgan

taassurot va fikr-mulohazalar oqimi muhim, deb bilingani uchun ham romanni bob va qismlarga bo'lish zarur hisoblanmagan.

Biz yuqorida T.Rustam asarining o'ziga xos original jihatlari haqida qisman to'xtaldik. Lekin ushbu originallik o'zbek romanchiligining yutug'i va barcha ijodkorlar undan andoza olishsin, degan fikrdan yiroqmiz. "Kapalaklar o'yini" – tajriba roman. Asarda G'arb va Sharq adabiyotiga xos bo'lgan jihatlarni sintezlashtirishga harakat qilingan. Biroq barcha o'rinlarda ham urinishlar muvaffaqiyatli chiqmagan. Xususan, tasvirdagi mavhumliklar, noo'rin takrorlar, gap tuzilishidagi zo'rma-zo'raki bog'lanishlar o'quvchi asarni qabul qilishini qiyinlashtiradi. Shunday bo'lishiga qaramay, asarda tasvir usullari, shakliy izlanishlar borasida ancha dadil tajriba olib borilganligining o'zi tahsinga sazovordir.

XULOSA

Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” va “Ch.Aytmatovning “Oq kema” asarlari poetikasidagi bir-biriga yaqinlik, bosh qahramonlar dunyosining mushtarakligi, folklarga yaqin turishi ularni qiyosiy planda o’rganishimizga turtki bo’ldi. Maqsadimiz ularning birini ikkinchisidan ustun qo’yish emas, balki asarlarning g’oyaviy-estetik qimmatini aniq ko’rsatish, yozuvchilarning o’ziga xos san’atkorlik, badiiy iqtidor qirralarini aniqlab berishdan iborat bo’lib, bunga erishishga baholi qudrat harakat qildik.

Shu bilan birga o’zaro ta’sir muammolari bo’yicha olib borilgan kuzatishlar va tahlillar doimo mutaxassislar e’tiborini tortib kelgan. So’nggi yillarda o’zbek adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo’layotgan masalalaridan biri – nasr va nazmda qo’llanayotgan modernistik yoki noan’anaviy tasvir vositalari bo’lmoqda. Noan’anaviylik bo’yicha e’lon qilinayotgan har bir tadqiqot yoki maqola katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda, maxs va munozaralarga sabab bo’lmoqda. So’nggi yillar o’zbek romanchiligida paydo bo’lgan “Bozor” va “Kapalaklar o’yini” romanlarini G’arb modernistik asarlari mezonlari asosida tahlil qilish barobarida ulardagi o’ziga xosliklarga ham e’tibor berildi.

Malakaviy bitiruv ishida XX asr fransuz adabiyotining ikki vakili A.de Sent-Ekzyuperi va A.Kamyu ijodidagi an’ana, novatorlik hamda “Kichkina shahzoda” asari tarjimasi borasidagi kuzatuv natijalari ham o’z aksini topdi. Topologik o’xshashliklar va o’zaro ta’sir ko’rinishlarini o’rganish maqsadi bilan olib borilgan tadqiqot quyidagicha xulosalandi.

1. A.de Sent-Ekzyuperi adabiyotga birinchi bo'lib avitsiya mavzusini olib kirishi bilan birga, uchuvchilik kasbini jamiyat va bashariyat taqdiri haqida falsafiy mushohadalar manbasiga aylantira oldi hamda uchuvchilikni ilk bor ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida talqin etdi.

Adib asarlari uchun syujetning ikkinchi darajali shartga aylanishini yozuvchi uchun voqea va hodisalar haqida hikoya qilishdan ko'ra ana shu voqealar tufayli paydo bo'lgan mulohazalar bayoni muhim bo'lganligi bilan izohlash mumkin bo'ladi.

2. Mifologik unsurlar turli davrlar adabiyotida asosan yetakchi mafkura, yo'nalish. Oqim g'oyalarini badiiy aks ettirish vositalaridan biri sifatida qo'llanib kelindi. XX asrga kelib mifologizmlar adabiyot poetikasining muhim kategoriyalaridan biriga aylandi. Asoslarning syujet-kompozitsion qurilishidagi yangi tendensiyalar sababi ham shu jarayon bilan bog'liqdir. Bu hol murakkab va ziddiyatli tashqi dunyoni yozuvchilar tomonidan turli tarzda tahlil qilish urinishlari bilan belgilanadi.

3. Antuan de Sent-Ekzyuperi va Ch.Aytmatovni turli siyosiy tuzum, davr, diniy-madaniy qatlam ajratib turadi. Shuning uchun ular asarlarining paydo bo'lishidagi motivlar, ko'zlangan badiiy-estetik niyat ijodkorlar yashagan davr shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Fransuz yozuvchisi o'z asarini Ikkinchi jahon urushi avjiga chiqqan, juda ko'p xalqlar taqdiri, shu jumladan fransuz xalqining taqdiri hal etilayotgan bir paytda vatanidan uzoqda – Amerika Qo'shma Shtatlarida yaratadi. Ertak yozuvchining eng oliy zot-inson fashistlar

tomonidan kamsitilayotgan va xo'rlanayotgan beshafqat zamonasiga qarshi qo'yiladi.

Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasi sho'rolar tuzumining kommunistik jamiyat qurish borasida kurash avj olayotgan, lekin ana shu kurash ishtiyoqi bilan bo'lib, insonlar inson bo'lib qolishlari uchun zarur bo'lgan juda ko'p narsalar boy berilayotgan bir paytda paydo bo'ldi. Asarda dag'allashib borayotgan insoniy aloqalar va ularning paydo bo'lish sabablari o'z badiiy ifodasini topadi.

4. XX asrga kelib, voqea va kashfiyotlarning shiddatli tus olishi bir qancha ijobiy jihatlari bilan birga inson ma'naviy dunyosiga keskin salbiy ta'sir o'tkaza boshladi. Bu esa xavfsirash, to'rqinch, yolg'izlik singari davrga xos insoniy holatlarni aks ettiruvchi yangi shakl-shamoyillarni qidirishni talab etadi. Bunday vaziyat "Kichkina shahzoda" va "Oq kema" asarlarining janr tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. "Kichkina shahzoda" (tugallanmagan "Istehkom"ni hisobga olmaganda) Sent-Ekzyuperining bosilib chiqqan so'nggi asari bo'lganligi uchun, unda yozuvchi ijodiga xos bo'lgan uslub, an'ana va tamoyillar o'ziga xos tarzda sintezlashgan. Shu bilan birga adib bu asarida ijodida birinchi marta ertak janriga murojaat qilgan va romantik falsafiy ertakning original namunasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Yozuvchi zamonaning qayg'u-tashvishlarini kelajakka bo'lgan umid, ishonch hislarini oddiy ertak orqali emas, balki ertak-hikoya (naql) orqali ifoda eta olish mumkinligini anglab yetgan.

Ch.Aytmatov "Oq kema" asari o'z tuzilishi, murakkab simbolikasi, ko'tarilayotgan muammolar ko'lami bilan avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Qissaga kishilarda insoniylikni yo'q bo'lib borishi va keng ma'nodagi (qalb va atrof olam) ekologiya (Sobiq Ittifoqda hali dolzarb hisoblanmagan) muammolarning asos qilib olinishi o'ziga xos universal janr ko'rinishini talab etar ekan. Natijada, realistik qissada olamshumul muammolarni talqin etishning qulay vositalaridan bo'lgan fojea, hikoyat singari janr unsurlaridan samarali foydalaniladi.

Sent-Ekzyuperi asari esa o'ziga xos jihatlari bilan qadimiy hikoya janriga yaqin turadi. Bu hol asarda majoziy va ramziy vositalar yordamida ibratli xulosa chiqarilgani bilan izohlanadi. Asar qahramonlarining donolarcha – aforistik tarzda mulohaza yuritishlarida esa yozuvchi juda qadrlagan B.Paskal, F.Laroshfuko singari klassistik nasr vakillari an'alarining ta'siri seziladi.

5. “Kichkina shahzoda” va “Oq kema” o'rtasidagi o'xshashlikning asosi bosh qahramonlar ruhiy kechinmalarida namoyon bo'ladi. Bunday assotsiatsiyaning paydo bo'lishi sabablarini adabiy aloqa, uslublarning ta'siridan emas, balki asarlar yaratilgan davr muammolari, kayfiyati va ularni badiiy aks ettirishdagi yozuvchi iste'dodi, tafakkuri, fantaziyasi imkoniyatlaridan qidirmoq kerak. Ana shu muammolar, ularni hal etish uchun oldinga surilgan g'oyalar mushtarakligi bir-biriga o'xshash qahramonlarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

O'z qarashlari, atrof-olamga munosabati bilan tom ma'nodagi gumanist bo'lgan Sent-Ekzyuperini Ikkinchi jahon urushi keltirib chiqargan ochlik, qo'rquv, shafqatsizlik kabi falokatlar bilan birga uning “ma'naviy birlik”ka rahna solishi qattiq qayg'uga solgan. Yozuvchi bunday og'ir ruhiy tushkunlik davrida o'z kechinmalarini

o'zga sayyoradan kelgan murg'ak bola obraziga ko'chirgan. Shunday yo'l bilan zamonaning shafqatsizliklari va dag'alliklariga shahzoda xarakteridagi soddadillik, samimiylik va romantik dunyoqarash qarshi qo'yiladi.

Ch.Aytmatov esa ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar chigallashayotgan bir paytda yaratilgan asari uchun 7 yoshli bolani bosh qahramon qilib olishi uning ijodida yangilik bo'ldi. Qissada ezgulik, go'zallik dunyosi va insonlarning g'arazli aloqalari asosiga qurilgan real dunyo o'rtasida qolgan murg'ak qalb iztiroblari tasvirlanadi.

6. Sent-Ekzyuperi va Ch.Aytmatov tomonidan ismsiz bolalar orqali sof insoniylikning ramziy timsoli yaratilgan. Shuning uchun ham "Oq kema"ning asosiy problematikasi ko'pchilik adabiyotshunoslar (L.Lebedeva, Yu.Surovsev) tomonidan ta'kidlangan ekologiya masalasi emas, balki ma'naviy soflik g'oyasi bilan bog'liqdir.

Har ikki adib uchun bolalik-ma'naviy kategoriya. Inson bolaligida ma'naviy barkamollikka yaqin bo'ladi. To'g'riso'zlik, beg'araz mehr ko'rsatish, soddadillik singari komillik unsurlari bolalarda sof holda bo'ladi. Ular hali muhit tasiridan yiroq – vijdon amri bilan yashaydilar. Shuning uchun inson doimo bolalikka, uning beg'ubor olamiga qaytib yoki sog'inib yashash kerak. Sent-Ekzyuperi ta'biri bilan aytganda, "eng asosiysi qaytmoq uchun yashashdir". Bunday yashash esa insonni ruhan poklaydi.

7. "Kichkina shahzoda" asarining 1963 va 1985 yili o'zbek tiliga tarjima qilinishi fransuz-o'zbek adabiy aloqalarining yanada kengayishida o'ziga xos rol o'ynaydi. M.Umarov tomonidan amalga oshirilgan tarjima varianti bu boradagi dastlabki ish ekanligi bilan emas,

tilining sodda va ravonligi, originalga yaqinligi bilan ham diqqatga sazovordir. Lekin tarjima ertak-qissaning qisqartirilgan varianti bo'lib, unda asar kompozitsiyasida muhim o'rin tutuvchi o'rinlar tarjima qilinmagan. Bu har bir so'z, ibora, detal muhim hisoblangan "Kichkina shahzoda" tarjimasida kemtiklikni keltirib chiqargan.

8. A.Kamyu ekzistensializm falsafasi va adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, absurd, hayot va o'lim hodisalarini birinchilardan bo'lib badiiy tadqiq etgan adib sifatida ahamiyatlidir. A.Kamyu o'zi inkor etgan bo'lishiga qaramay, u ekzistensializm adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib qolaveradi. Uning ijodi XX asr ikkinchi yarmi adabiy jarayonida so'zsiz o'z o'rni va ta'sir kuchiga ega bo'lib, so'nggi yillar o'zbek nasrida ham ta'siri sezila boshladi.

9. So'nggi yillar o'zbek nasrida Joys, Prust, Kafka, Kamyu singari G'arb ijodkorlari asarlari o'zaro ta'sir doirasi va imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Ijtimoiy muammolardan ko'ra inson "men"ini tadqiq etish, ruhiy olamning o'ziga xos qatlamlariga kirib borishi, hayot va umr mazmuni xususida falsafiy mulohazalar qilishga noan'anaviylik bilan uyg'un holda olib borilayotgani kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ваксмахер М. Французская литература наших дней. –М.: Худож.лит. 1967. С.30-68.
2. Сент-Экзюпери А. де. Кичкина шахзода. Тошкент: Ёш гвардия, 1986.Мазкур нашрга ёзувчининг “Кичкина шахзода” эртаги ва ҳ.к.
3. Григорьев В.П. Антуан Сент-Экзюпери. Л., Просвещение, 1973.
4. Сент-Экзюпери. Военные записки. 1939-1944. М.: Прогресс, 1986.
5. Сент-Экзюпери. А.де Истеҳком //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил.
6. Ч.Айтматов. Собр.соч. в 3-х томах. Том 2. -М.: Молодая гвардия, 1983.
7. Ч.Айтматов. Танланган асарлар. 291-б.
8. Ч.Айтматов. Бувим. “Болалигим” китобидан парча. //Марказий Осиё маданияти. 2004 йил.
9. А.Камю Ўзликни англаш – Исён. Фалсафий эсселар//Ёшлик. 1989, 1-сон, 57-62-бетлар.
10. Кушкин Е.П. Альбер Камю: Ранние год. –Л., 1989.